



ATOM ENERGETIKASI SANOAT VA IQTISODIYOT TARMOG‘INING O‘SIB BORAYOTGAN EHTIYOJINI TA‘MINLASHDA MUHIM

Prezident Shavkat Mirziyoyev 10-fevral kuni atom energetikasi sohasida amalga oshirilayotgan ishlar va kelgusidagi ustuvor vazifalar yuzasidan yig‘ilish o‘tkazdi.

Aholi va iqtisodiyot tarmoqlarining o‘shib borayotgan ehtiyojini ta‘minlash uchun mamlakatimizda energetikaning barcha manbalari ishga solinmoqda. An‘anaviy generatsiyadan tashqari, so‘nggi yillarda qariyb 4 gigavattli muqobil quvvatlar ishga tushirildi va “yashil” energiya ulushi 16 foizga yetdi.

Kelgusi besh yilda yana 25 gigavattli qayta tiklanuvchi energiya manbalari barpo etiladi. Bularning hisobiga yiliga 64 milliard kilovatt-soat “yashil” energiya olinadi. Umuman, 2030-yilga borib, yurtimizda jami generatsiyada “yashil” energiya ulushini 50 foizdan oshirish maqsad qilingan.

Ayni paytda raqamli texnologiyalar, elektromobillar, elektr jihozlar, sun‘iy intellekt, mayning kabi tarmoqlarning rivojlanishi energiyaga bo‘lgan talabni keskin oshirmoqda. Shu bois, ko‘plab davlatlar yangi turdagi energiya quvvatlariga o‘tish yo‘llarini izlayapti. Yer qa‘ridan qazib olinadigan yoqilg‘ilar o‘z o‘rnini qayta tiklanuvchi manbalarga bo‘shatib beryapti. Bugunga kelib, dunyodagi jami generatsiyaning 42 foizi muqobil energiyadir.

Uzoq yillik quvvatlarni barpo etishda atom energetikasi maqbul hisoblanadi. Hozirgi kunda dunyoda 375 gigavattli 417 ta atom reaktorlari ishlatilmoqda. Yana yangi stansiyalar qurilyapti, ko‘p davlatlar atom energetikasini o‘zining rivojlanish strategiyasiga kirityapti.

Mamlakatimizda uran zaxirasi borligidan foydalanib, uzoq muddatga mo‘ljallangan quvvat tashkil etish rejalashtirilgan. Xususan, kichik quvvatli reaktorlar barpo etish loyihasi ishlab chiqildi. 2024-yil 5-dekabrda Samarqand shahrida atom energiyasidan foydalanish masalalari bo‘yicha xalqaro konferensiya o‘tkazildi.

Yig‘ilishda mutasaddilar atom energetikasini rivojlantirishga oid qilinayotgan ishlar bo‘yicha axborot berdi.

Davlatimiz rahbari bo‘lajak stansiya va tizimda ishlaydigan mutaxassislarni hozirdan tayyorlash, xavfsizlikni Xalqaro atom energiyasi agentligi talablari darajasida ta‘minlash bo‘yicha topshiriqlar berdi. Bunday texnologiyalar iqtisodiyot raqobatdoshligini oshirib, uzoq muddatli o‘shish sur‘atlari uchun munosib zamin yaratishi ta‘kidlandi.

O‘ZA

DAVLAT DASTURIDA AKS ETGAN YUKSALISH SHIJOATI

YOXUD MAMLAKATNI IJTIMOYIY-IQTISODIY JIHATDAN YANADA RIVOJLANTIRISHDA MAZKUR HUJJATNING O‘RNI QANDAY?

Taraqqiyot yo‘li

Har qanday muvaffaqiyat, taraqqiyot yo‘li aniq maqsad va vazifalar hamda ularni samarali amalga oshirish, ya‘ni qat‘iy tartib-intizom, rejali mehnatga tayanadi. Aytaylik, siz biror sohaning tom ma‘noda yetuk mutaxassisi o‘laroq jamiyatda o‘z o‘rningizga, jamoangizda hurmat-e‘tiborga sazovor bo‘lmoqchisiz. Bu sizning istagingiz, boshqacha aytganda — xohish. Lekin maqsad emas. Qachonki xohishni ro‘yobga chiqarish yo‘llarini tuzib chiqsangiz, amalga kirishsangiz, bu maqsadga aylanadi.

Jamoa, jamiyat yoki davlat miqyosida ham taraqqiyotga erishish yo‘li deyarli shunday. Asosiy farqi, bularda umumiylik bor, ya‘ni bir maqsad yo‘lida ko‘pchilikning hamkorlikda, hamjihatlikda samarali mehnat qilishi. Shu nuqtayi nazardan, keyingi paytlarda mamlakatimizda strategik



ahamiyatga ega qabul qilinayotgan hujjatlar, avvalo, umumxalq muhokamasiga qo‘yilib, yurtdoshlarimizning xohish-istaklari asosida takomiliga yetkazilayotgani yangi O‘zbekistonda samarali mehnat qilishi. Shu nuqtayi nazardan, keyingi paytlarda mamlakatimizda strategik

Prezidentimizning 2025-yil 7-fevraldagi farmoni bilan tasdiqlangan “O‘zbekiston — 2030” strategiyasini “Atrof-muhitni asrash va “yashil iqtisodiyot” yilida amalga oshirishga oid davlat dasturi to‘g‘risida ham shunday fikr bildirish mumkin.

Davomi 3-beta

VATANPARVAR TADBIRKOR faqat o‘z foydasini ko‘zlamaydi

O‘ramizdagi odamlar

O‘n yil oldin — Bahrom Raupov “Surkhon Sandwich” nomli korxonani tashkil etib, qurilish ashyolari ishlab chiqarishni endi boshlagan paytlar edi. Bozor topolmay, mahalliy telekanalda reklama bera boshladi. O‘sha kezlari ko‘plab tadbirkorlar uni bu yo‘ldan qaytarmoqchi ham bo‘ldi. Sababi, u paytlar qurilish ishlari hozirgidek keng miqyosda emas, kam edi. Qurilish tashkilotlari obyektlarni qurish va ta‘mirlash uchun buyurtmalarni noshaffof harakatlar bilan egallab olar, endi ochilgan “Surkhon Sandwich” kabi korxonalar “non” tegmas edi. Biroq tadbirkor faoliyatini davom ettiraverdi.

Keyingi yillarda mamlakat chin ma‘noda katta qurilish maydoniga aylandi. Qurilishda shaffof tizim shakllantirildi. Natijada Bahrom Raupov singari halol ishbilanmonlar ko‘paydi, faoliyati kengaydi, mehnati e‘tirof etiladigan bo‘ldi. Yaqinda Prezidentimiz raisligida xizmatlar sohasini rivojlantirish bo‘yicha 2024-yilda amalga oshirilgan ishlar va 2025-yil uchun asosiy vazifalar yuzasidan

videosektor yig‘ilishi bo‘lib o‘tdi. Unda uch yil oldin qabul qilingan xizmatlar sektorini rivojlantirish bo‘yicha katta dastur bugun natijasini berayotgani, qo‘shimcha 1,5 million aholi servis sohasida doimiy daromadga ega bo‘lgani, xizmatlar 2018-yildagi 19 milliarddan 65 milliard dollarga oshgani qayd etildi.

Davomi 2-beta



MALAYZIYANING “AQLLI” QISHLOQ XO‘JALIGI O‘zbekiston agrar tarmog‘ida keng qo‘llanadi

Yangicha yondashuvlar

Mamlakat rivojlangani sari hamkorlik qiluvchilar safi ham kengayib boraveradi. Bugun dunyo miqyosida O‘zbekistonga qiziqishni inobatga olsak, bu borada o‘ziga xos tajribaga egaligimiz ravshan bo‘ladi. Yangi O‘zbekistondagi izchil islohotlarning ulkan natijalari barcha sohadagi o‘zgarishlar, xalqaro aloqalar, mamlakatlar bilan do‘stona va manfaatli hamkorlik samarasida yaqqol ko‘zga tashlanmoqda. Bunga uzoqdan misol izlash shart emas. Prezidentimizning joriy yil 4-5-fevral kunlari Malayziyaga rasmiy tashrifi doirasida erishilgan kelishuvlar, ochiq va samimiy muloqotni keltirishning o‘zi kifoya.



Binobarin, tashrif ana shunday jihatlar bilan alohida ajralib turdi. Birodar va kelajakka intilgan ikki xalq ishtiyogi, shijoati imzolangan hujjatlarda o‘z aksini topdi. Tashrifning diplomatik doiralarda, keng jamoatchilik orasida tarixiy voqea, sifatida e‘tirof etilayotgani, istiqbolli muhim qadam bo‘lgani bot-bot takrorlanayotgani boisi shunda.

Malayziya Janubi-sharqiy Osiyodagi jadal rivojlanayotgan mamlakat sifatida O‘zbekistonga katta qiziqish bildirayotgani va serqirra aloqalar o‘rnatishga tayyorligi o‘tkazilgan barcha uchrashuvda yaqqol sezilib turdi. Bunga o‘zim yaqqol guvoh bo‘ldim. Chunki mamlakatimiz delegatsiyasi tarkibida biz, oliy ta‘lim muassasalari vakillari ham bor edik.

Davomi 4-beta



ALISHER NAVOIY VA SHARQ RENESSANSI

Hazrat Alisher Navoiy “O‘z vujudingga tafakkur aylagil, Har ne istarsen, o‘zungdin istagil”, degan hikmatini bugungi kunimizga dasturulamal qilib yozgandek go‘yo. Zero, hozirgiday tahlikali, geosiyosiy ziddiyatlar avj olgan bir vaqtda xalq va mamlakat manfaatini to‘la himoya qilish uchun tashqaridan najot kutib bo‘lmaydi. Bunday vaqtda, hazrat aytganiday, tafakkur birla o‘z ichki imkoniyatlarimizni ishga solishimiz kerak bo‘ladi. Ha, bugun Alisher Navoiy kabi ulug‘ ajdodlarimiz ma‘rifatiga har doimgidan ham ko‘proq ehtiyoj bor.



Prezidentimiz 2024-yilning 30-oktabr – 1-noyabr kunlari Navoiy viloyatiga tashrifi doirasida faollar bilan uchrashuvda buyuk bobomiz nomi bilan ataladigan Navoiy viloyati ma‘naviy tarbiya, ma‘rifiy yuksalish yo‘lida barchaga o‘rnak va namuna bo‘lishi, ta‘bir joiz bo‘lsa, yurtimizning ma‘naviy brendiga aylangan zarurligini ta‘kidlagan, shuningdek, 2025-yilni viloyatda “Alisher Navoiy yili” deb e‘lon qilishni taklif etgan edi. Bu taklif olimu shoirlar, madaniyat va san‘at namoyandalari, ziyolilar, umuman, keng jamoatchilik tomonidan ham katta quvonch, faxr hamda minnatdorlik bilan kutib olindi.

Davlatimiz rahbarining joriy yil 7-fevraldagi “Buyuk shoir va mutafakkir Mir Alisher Navoiy ijodiy merosini

yurtimiz va jahon miqyosida keng targ‘ib qilish hamda Navoiy viloyatida “Alisher Navoiy yili”ni yuqori darajada o‘tkazish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarori ushbu tashabbusning amaliy ifodasi bo‘ladi.

Albatta, Alisher Navoiyning betimsol ijodi dunyo mamlakatlarini zabt etgan chinakam umumbashariy noyob merosdir. Hazrat asarlarida yuksak insonparvarlik g‘oyalari, ezgulik, do‘stlik, bag‘rikenglik va mehr-muruvvat singari mangu mavzularni tarannum etgan. Yuqoridagi baytini bir oz o‘zgartirib aytganda, har ne yaxshilikni izlagan kishi uni Navoiy bobomizdan topadi. Shu ma‘noda, bu asarlar ado bo‘lmas adabiy xazina, abadiyatga qadar mo‘ljallangan ma‘naviy karvondir.

Davomi 6-beta

UCH BO'G'INLI HAMKORLIK TIZIMI

MAHALLIY KENGASHLAR HUDUDLARDAGI MUAMMOLARNI HAL ETISHDA ASOSIY MAS'ULGA AYLANMOQDA

Xalq bilan muloqotning eng samarali vositasi o'laroq, mahalliy kengashlar vakolatlari kengayishi faoliyat samaradorligini yanada oshirishga xizmat qiladi.

Davlatimiz rahbari yangidan shakllangan Senatning birinchi yalpi majlisidagi ma'ruzasida yuqori palataning mahalliy kengashlar bilan doimiy hamkorligini ta'minlash bo'yicha qator ustuvor vazifalarga alohida e'tibor qaratdi



Gulnora MA'RUFOVA, Senatning Fan, ta'lim va sog'liqni saqlash masalalari qo'mitasida doimiy asosda ishlovchi senator

va bu yo'nalishda keng qamrovli islohotlarni izchil davom ettirishga yordam berishdan iborat. Shu bilan birga, markaz mahalliy vakillik organlari samaradorligini oshirish, ularga uslubiy va amaliy yordam ko'rsatishga qaratilgan aniq chora-tadbirlarni ishlab chiqish bilan ham shug'ullanadi.

O'tgan yilning 20-27-dekabr kunlari Oliy Majlis Senatida videokonferensaloqa shaklida o'tgan o'quv seminarida xalq deputatlari Qoraqalpog'iston Respublikasi Jo'qorg'i Kengesi, viloyatlar va Toshkent shahri, shuningdek, tuman, shahar kengashlari deputatlari ishtirok etdi.

Seminarida mamlakatdagi mahalliy hokimiyat vakillik organlari faoliyati samaradorligini oshirishga yo'naltirilgan yangiliklar xususida fikr almashildi.

Senat Raisi Tanzila Norboyeva Oliy Majlis palatalarining 2024-yil noyabrda bo'lib o'tgan majlislarida davlatimiz rahbari tomonidan belgilab berilgan ustuvor vazifalar va ularning ijrosi doirasida vakillik organlari roliga to'xtalib, ushbu vazifalarning har biri aholi turmush darajasini yaxshilash va mamlakatning barqaror rivojlanishini ta'minlashga qaratilganini ta'kidledi.

Tadbirda mahalliy kengashlar va deputatlar faoliyatini takomillashtirish, qonuniyligi ta'minlash, deputatlarning nazorat va tahlil ishlarini kuchaytirish, hududlardagi islohotlar haqida gap bordi. Ushbu jarayonda aholi va keng jamoatchilik vakillarining faol ishtirokini ta'minlash hamda fuqarolik jamiyati institutlari bilan hamkorlikni mustahkamlashga alohida e'tibor qaratildi.

Bundan tashqari, mahalliy budjetni shakllantirish, hududlarni rivojlantirish dasturlarini ishlab chiqish va tasdiqlash, ularning ijrosi ustidan samarali nazorat o'rnatish, ijro hokimiyati rahbarlarining hisobot va axborotlarini tinglash uchun samarali mexanizmlarni joriy etish masalalari ham keng muhokama qilindi.

Senat qo'mitalari va mahalliy kengashlar faoliyati samaradorligini oshirish, qonun ustuvorligini ta'minlash, deputatlar va saylovchilar o'rtasida samarali muloqot

o'rnatish, shuningdek, kengashlarning faoliyatini raqamlashtirish masalalariga urg'u berildi.

Mahalliy kengashlar va deputatlar faoliyatini samarali tashkil etish, xususan, kengashlarning norma ijodkorligiga oid faoliyatini takomillashtirish, qaror qabul qilishda qonuniyligi, mahalliy budjetni shakllantirishda deputatlarning faol ishtirokini ta'minlash, nazorat va tahlil faoliyatini kuchaytirish, ta'sirchanligini oshirish, aholi muammolarini o'rganish va hal etishda "mahalla yetiligi" hamda fuqarolik jamiyatining boshqa institutlari bilan samarali hamkorlikni yo'lga qo'yish masalalari ham muhokama markazida bo'ldi.

Mirobod tumani misolida mahallalardagi muammolari hal etishda mahalliy kengashlar deputatlarining "mahalla yetiligi" va senatorlar bilan o'zaro hamkorlikni yo'lga qo'yish tajribasi o'rganildi.

Mirobod tumanida 39 ta mahalla bo'lib, ularning har birida "mahalla yetiligi" faoliyat yuritadi. Xalq deputatlari tuman kengashining 25 nafar deputati o'z saylov okruglari bo'yicha mahallalarga birkiritilgan. Ular Prezidentimizning 2023-yil 21-dekabrda "Mahalla institutining jamiyatdagi rolini tubdan oshirish va uning aholi muammolarini hal etishda birinchi bo'g'in sifatida ishlashini ta'minlashga qaratilgan chora-tadbirlar to'g'risida"gi farmonning mazmun-mohiyati, shuningdek, "mahalla yetiligi" faoliyati to'g'risida aynan mahallalarga chiqqan holda aholiga tushuntirish ishlarini olib borgan.

E'tiborsiz, har bir mahallada sektor rahbari, "mahalla yetiligi" va deputat ishtirokida uchrashuvlar reja asosida o'tkazilishi yo'lga qo'yilgan. Uchrashuvlarda bildirilgan takliflar asosida mahalla hududida ijtimoiy-iqtisodiy sohaga oid yechimini kutib turgan masalalar o'rganilib, "Obod mahalla" dasturi doirasida mahallada bajarilayotgan qurilish, ta'mirlash va bunyodkorlik ishleri, hududni ozoda saqlash, ko'kalamzorlashtirish, ko'p qavatli turar joy binolarining yerto'la qismida joylashgan kommunikatsiya tizimlarini ta'mirlash ishleri bajarilgan.

Shuningdek, maktabgacha va maktab ta'limi binolarini o'rganish, hududda mavjud noqonuniy qurilmalarga nisbatan qonuniy chora ko'rish, mahalla idoralari joylashgan binolar, "mahalla yetiligi"ga yaratilayotgan sharoitlar bo'yicha qator o'rganish va nazorat ishlarini doimiy ravishda amalga oshirilib kelimoqda.

Xulosa qilib aytish mumkin, mahalliy kengashlar mahalladagi muammolari o'rganish va ijobiy hal etishda xalqning chinakam ovozigacha aylanib bormoqda.

Qaror va ijro

Mamlakatimizda mavjud o'n mingga yaqin mahallaning qariyb 3 mingtasida aholi asosan ko'p qavatli uylarda yashaydi. Bu mahallalarga 821 ta boshqaruv servis kompaniyasi xizmat ko'rsatmoqda. Yaqin-yaqingacha hovli uylar joylashgan 6400 dan ortiq mahallada esa obodonlashtirish va ko'kalamzorlashtirish ishlari asosan hashar yo'li bilan bajarilar edi.

MAHALLA SERVIS KOMPANIYASI

Qisqa vaqtda 5400 fuqaro ishli bo'ldi

Davlatimiz rahbarining 2024-yil 25-iyundagi "Mahallalarni obodonlashtirish, ko'kalamzorlashtirish va qiyofasini tubdan yaxshilashga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi qarori hovli uylarni saqlash va obodonlashtirish bilan bog'liq muammolari bartaraf etishning yangi mexanizmlarini joriy qilish, aholi va kommunal xizmat tashkilotlari o'rtasida samarali hamkorlikni yo'lga qo'yish hamda mahallalar hududida yashovchi aholini mahalla obodligiga keng jalb qilishda muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Xususan, mazkur huquqiy hujjat bilan tuman va shaharlarda Bag'dod tumanidagi "Yuksalish" MFY tajribasi asosida bittadan salohiyatli tadbirkor ishtirokida "Mahalla servis kompaniyalari" tashkil etildi. Shundan 53 tasi mahalla binosiga joylashtirilgan bo'lsa, 27 tasi uchun namunaviy loyiha asosida bino qurildi. 128 tasi uchun esa tayyor bino rekonstruksiya qilindi. Bundan tashqari, 208 ta chiqindi yig'ish shoxobchasi qurildi.

Natijada 5400 fuqaro ishli bo'ldi. Ular tomonidan aholiga 23 turdagi 36 milliard so'mlik pulli xizmat ko'rsatildi. Shu bilan birga, mahallalarda uzunligi 48 ming 228 kilometr yo'l va ariq tozalandi. 103 ming tupdan ortiq manzarali va mevali daraxt parvarish qilinmoqda.

Yangiyo'l tumanidagi "G'alaba" mahalla fuqarolar yig'inida tashkil etilgan mahalla servis kompaniyasi shulardan biri. Bu hududda kompaniyaga mos yangi bino qurilib, ishsiz 11 fuqaro doimiy ish o'rniga ega bo'ldi. Mazkur servis kompaniyasi tomonidan mahallani obodonlashtirish va ko'kalamzorlashtirish ishleri bepul bajariladi. Shuningdek, unda aholi uchun 23 turdagi kommunal xizmat ko'rsatish ham yo'lga qo'yilgan.

Mahalla servis kompaniyalari faoliyati yo'lga qo'yilishi aholining og'irini yengil qilyapti, — deydi poytaxtimizning Yakkasaryo tumanidagi "Go'zal" mahalla fuqarolar yig'ini raisi Rustam Yodgorov. — Mahallamiz hududi 100 gektardan ortiqni tashkil etadi. Ichki yo'larning uzunligi 20 kilometr. Mahalla servis kompaniyasi tashkil etilgandan so'ng hudud har kuni tozalanadigan bo'ldi. Kompaniya

xodimlari ko'cha va ariqlar tozaligini ta'minlash bilan birga, ko'chat ekish, shartnoma asosida kommunal tarmoqlarni ta'mirlash, chiqindilarni saralash va tashish xizmatlarini ko'rsatish bilan ham shug'ullanmoqda.

Shu bilan birga, kompaniya xodimlari ayni paytda mahalla hududidagi kam ta'minlangan oilalar xonadonida obodonlashtirish ishlarini bajarish bilan birga, aholi, korxonalar va tashkilotlarga shartnoma asosida pulli xizmat ham ko'rsatmoqda.

Bu tuzilma mahalla obodligini ta'minlash bilan birga, tadbirkorlikning har tomonlama manfaatli turiga ham aylanyapti.

Prezidentimiz qarori bilan mahalla servis kompaniyasi tashkil etgan tadbirkorlarga berilayotgan imtiyozlar yaxshi rag'bat bo'ldi, — deydi Yakkasaryo tumanidagi "Go'zal toj" mahalla servis kompaniyasi direktori Hayot Umarov. — Jumladan, servis kompaniyalari mahallani obod qilish bilan bog'liq ishlarni bajarish, shuningdek, aholiga boshqa turdagi ijtimoiy ahamiyatdagi pulli xizmatlar ko'rsatish doirasida foyda, mol-mulk va yer soliqlari hamda ijtimoiy soliq to'lovlarini to'lashdan, shuningdek, kompaniya ishchi-xodimlari jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'idan ozod etilgan.

Mahallada bizga barcha qulaylikka ega bino ajratilgan. Qarorda belgilangan 10 dan ziyod texnik vosita va uskuna bilan bepul ta'minlandi. Zamonaviy 2 ta elektr motorlorer hudud obodligini ta'minlashda juda qo'l kelmoqda.

Elektr motoroller, yer haydash mini uskunasi, hasharotlarga dori sepih qurilmasi va boshqa uskunalar bilan esa davlat va jamoat tashkilotlariga pulli xizmat ko'rsatilmoqda.

Joriy yilda qo'shimcha yana mingta mahallada mahalla servis kompaniyasi tashkil etish, har bir servis kompaniyasiga 3 tagacha mahalla birkiritilishi rejalashtirilmoqda. Xizmatlar turini esa 23 tadan 31 taga ko'paytirish, bu orqali 15 mingtagacha yangi ish o'rni yaratish maqsad qilingan.

Lutfulla SUVONOV,
"Yangi O'zbekiston" muxbiri

O'ramizdagi odamlar

VATANPARVAR TADBIRKOR

FAQAT O'Z FOYDASINI KO'ZLAMAYDI

Boshlanishi 1-betda

So'nggi yetti yilda daromadi va to'lov qobiliyati 2 karra o'sgani natijasida aholida yangicha xizmat va servis turlariga talab ortgani ta'kidlandi. Masalan, birgina Surxondaryo viloyatidagi "Ayritom" xalqaro savdo zonasida ochilgan xususiy klinika o'tgan yilning o'zida 15 ming chet ellik fuqaroga tibbiy xizmat ko'rsatgan.

Viloyat hokimlariga qo'shni davlatlar bilan chegaraoldi hududlarda 21 ta ko'p tarmoqli klinika tashkil qilish vazifasi topshirildi. Yig'ilishda hudud rahbarlari va vazirlarning hisoboti ham tinglandi, tadbirkorlarning namunali tajribasi ko'rib chiqildi. Jumladan, davlatimiz rahbari surxondaryolik tadbirkor Bahrom Raupov bilan muloqot qilib, uning faoliyatini e'tirof etdi. "Do'stlik" ordeni bilan mukofotlandi. Bu esa tadbirkorga yanada shijoat bag'ishladi.

"Mamlakatimizda tadbirkorlarga yaratilayotgan keng imkoniyatlardan unumli foydalanib, o'zining izlanuvchanligi va ishbilarmonligi bilan sohaga ilg'or tashabbus va innovatsion g'oyalarni samarali tatbiq etib kelayotgani, import o'rini bosuvchi mahsulotlar ishlab chiqarish, yangi ish o'rinlari yaratish borasida ko'pchilikka ibrat va namuna bo'layotgani, hududda iqtisodiy islohotlarni muvaffaqiyatli amalga oshirish, aholi farovonligini yuksaltirishga qo'shayotgan munosib hisssasi hamda ijtimoiy hayotdagi faol ishtiroki uchun Surxondaryo viloyati Termiz shahridagi "Surkhon Sandwich" mas'uliyati cheklangan jamiyati ta'sischisi Raupov Baxrom Qayumovich



"Do'stlik" ordeni bilan mukofotlansin" deyildi Prezidentimiz farmonida.

— Yig'ilishda so'z berilganda faoliyatim va yangi qurayotgan loyihalarim, nechta ishchi o'rni yaratayotganim haqida gapirdim. Shu kamtarona xizmatlarim e'tirof etilib, "Do'stlik" ordeniga munosib ko'ridi. Bunday bo'lishi xayolimga ham kelmagandi. Mazkur mukofot nafaqat mening, balki vohamiz ahlining yutug'i va mehnati samarasidir, — deydi tadbirkor.

Tadbirkorga amin-erkin ishlashi uchun sharoit yaratib berilsa, faoliyat kengayib boraverishini ushbu ishbilarmon misolida ko'rish mumkin.

— Bugun yurtimizda biznes egalarga keng imkoniyat bilan birga soha rivoji

uchun zarur sharoit yaratilyapti. Ulardan samarali foydalanayotganlar xizmat ko'rsatish, ishlab chiqarish yo'nalishlarida katta loyihalarni amalga oshiryapti. Denov tumani Qizilsuv daryosi bo'yida barpo etilayotgan yoshlar sayilgohi ham shular jumlasidan, — deydi Bahrom Raupov. — Bu joy 20 yillar davomida chiqindixona bo'lib yotdi. Ko'p sonli aholi yashaydigan maskanda og'riqli masala edi. Chunki asrlar davomida daryo qirg'og'i yemirilib kengayib ketgandi. Biz dastlab qirg'og'ni to'ldirdik. Natijada 14 gektar bo'sh va yaxshi maydon yuzaga keldi. Joriy yilning 1-mart kuni sayilgohni foydalanishga topshiramiz. Hududda 200 ta do'kon, 2 ta restoran, zamonaviy sayilgoh mujassam. Xullas, hamma ishni eplasa bo'ladi. Buning uchun xohish, ishtiyok, harakat bo'lsa, bas.



vatanda ishlab, uning rivojiga hissa qo'shayotganimdan mamnunman, — deydi Norbek Ahmedov.

Tadbirkor Termiz tumanida bazalt plitalar ishlab chiqarish loyihasini amalga oshiryapti. Vohaning Oltinsoy tumanidagi bazalt xarirasidan foydalanib, import o'rini bosadigan, eksportbop mahsulot ishlab chiqarish ko'zda tutilgan. Umumiy qiymati 26 million dollarlik mazkur loyiha ishga tushirilishi natijasida 350 ta yangi ish o'rni ochiladi. Bir yilda 30 ming tonna mahsulot ishlab chiqariladi. Texnologiyalar olib kelingan. Joriy yil foydalanishga topshirilishi ko'zda tutilgan.

— Bugunning zamonaviy, vatanparvar tadbirkorlari faqat foyda olishni ko'zlamayotgani quvonarli. Ular davlat rahbarining topshiriqlarini chuqur anglab yetgan holda jamiyat manfaatini uchun turli loyihalarda ham faollik ko'rsatmoqda. Kambag'allikni qisqartirish, "Yashil makon" kabi dasturlar doirasidagi ishlarda boshqalarga o'rnak va namuna bo'lyapti. Uzoq yillar chiqindixona bo'lgan yer manzilda katta sayilgoh buniyod etgan, hududlarni yashillikka burkashga urinayotgan ishbilarmon fikrimizga isbot. Bunday tadbirkorlar safi kengaygani sari yurtimiz yashnayeradi, — deydi O'zbekiston ekologik partiyasi Surxondaryo viloyati kengashi raisi Ibrohim Yoqubov.

Ishbilarmonlarning taklif va ta'shabbuslari hayotga ta'laqonli tatbiq etilayotgani tufayli ham Bahrom Raupov kabi tadbirkorlar safi kundan kun kengayib, erishayotgan yutuqlari bilan yangi O'zbekistonda boshlangan islohotlarning davomchisiga aylanmoqda. Bunday tadbirkorlar qancha ko'p bo'lsa, ular qancha ko'p daromad ko'rsa, davlatimiz ham shuncha boy bo'laveradi.

Sarvar TO'RAYEV,
"Yangi O'zbekiston" muxbiri

USHBU MAQOLANI QORAALPOQ TILIDA HAM O'QISH UCHUN QR-KODNI SKANER QILING!



Taraqqiyot yo'li

DAVLAT DASTURIDA AKS ETGAN YUKSALISH SHIJOATI

YOXUD MAMLAKATNI IJTIMOY-IQTISODIY JIHATDAN YANADA RIVOJLANTIRISHDA MAZKUR HUJJATNING O'RNI QANDAY?

Boshlanishi 1-betda

Zero, unda 2025-yilga mo'ljallangan amaliy tadbirlar rejasini, ishlab chiqiladigan normativ-huquqiy hujjatlar loyihalari ro'yxati, maqsadli ko'rsatkichlar, hududlarda qayta tiklanuvchi energiya manbalari quvvatlarini joriy etish, bahor-kuz mavsumlarida "Yashil makon" umummilliy loyihasi doirasida mahallalarda daraxtlar ekish bo'yicha reja kabi muhim choratadbirlar o'z aksini topgan.



Davlat dasturi jamiyatimiz talab va istaklarini inobatga olgan holda tuzilgan bo'lib, aylanibor, xalqimizning hayoti sifatini oshirishga qaratilgan bilan ahamiyatlidir. Uning asosiy yo'nalishlari qanday va dasturi amalga oshirishda fuqarolik jamiyatining roli nimadan iborat? "Yuksalish" harakati raisi **Bobur Bekmurodov** bilan suhbatimiz shu mavzuga bag'ishlandi.

O'zbekistonda har bir yil muayyan nom bilan atalib, shu asosda davlat dasturi ishlab chiqilishi an'anaga aylangan, — deydi B.Bekmurodov. — Bu yondashuv mamlakat ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishining strategik yo'nalishlarini belgilash va aholini dolzarb masalalarga jalb etishda muhim ahamiyat kasb etadi. Shu bois, bunday muhim hujjatlar ishlab chiqishda milliy amaliyotimiz bilan birga, xorij tajribasini ham o'rganamiz.

Bu borada rivojlangan davlatlarda ko'proq uzoq muddatli strategik rejalar qabul qilinadi. Masalan, Germaniyada "Yashil kelajak" dasturi ekologik muammolarga qaratilgan bo'lsa, Janubiy Koreyada besh yillik milliy rivojlanish rejalariga asoslangan tizim amal qiladi.

O'zbekiston tajribasining ulardan asosiy farqi — uzoq muddatli strategiya (hozir "O'zbekiston — 2030") doirasida har yili alohida mavzular asosida rivojlanish dasturini keng jamoatchilik ishtirokida shakllantirish va uni jamiyat bilan hamkorlikda amalga oshirishdir.

Davlat dasturlarini xalqchil hujjat deya olasizmi? Uning xalqchiligi aynan nimalarda namoyon bo'ladi?

— Avvalo, xalqchil hujjat qaysi talablarga javob beradi degan savolga oydinlik kiritarsak. Demak:

— dastur loyihasi ekspertlar, soha mutaxassislari tomonidan tayyorlanib, keng jamoatchilik muhokamasiga taqdim etiladi hamda aholining takliflari asosida ishlab chiqiladi;

— fuqarolarning murojaatlari asosida dolzarb muammolarga yechim qidiriladi;

— dasturlar ijrosini kuzatib borish uchun maxsus platforma va monitoring tizimlari joriy etiladi.

So'nggi yillarda O'zbekistonda qabul qilinayotgan muhim hujjatlar, ayniqsa, taraqqiyotga bevosita daxldor hisoblangan strategik hujjat loyihalari tayyorlashda keng jamoatchilik, shuningdek, xorijiy ekspertlar va xalqaro jamoatchilikning fikr-mulohazalarini o'rganishga alohida ahamiyat qaratilayotgani sir emas. Jamoatchilik muhokamasi hujjatlarining xalq talabidan kelib chiqqan holda hayotiy hamda xalqaro talablarga mos bo'lishini ta'minlashga xizmat qiladi.

5 ta muhim yo'nalishdan iborat davlat dasturining mazmuni, unda belgilangan ustuvor maqsadlar mohiyatan xalqimizning farovon turmushi, xavfsiz va sog'lom yashashini ko'zda tutadi. "Yashil iqtisodiyot" tamoyillarini keng joriy qilish, iqtisodiyotni iqlim o'zgarishiga moslashtirishga qaratilgan loyihalarni barqaror moliyalashtirish, "yashil transport"ni joriy etishga qaratilgan maqsadlar bugungi ekologik vaziyatda muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Davlat dasturlarini amalga oshirishda fuqarolik jamiyatining roli qanday bo'lmoqda?

— Davlat dasturlari ijrosini ta'minlashda fuqarolik jamiyati institutlari ham faol ishtirok etadi. Bu yo'nalishda davlat dasturining amalga

oshirilishi jamoatchilik fikrini inobatga olgan holda tanqidiy o'rganib boriladi.

"Yuksalish" harakati o'tgan yili davlat dasturi va hududlarni ijtimoiy-iqtisodiy kompleks rivojlantirish dasturlari ijrosi yuzasidan har oyda barcha mas'ul idora va vazirliklardan ma'lumot va axborotlar olib, ularda belgilangan vazifalar, xususan, har bir bandedning o'z muddatida va lozim darajada bajarilishi yuzasidan monitoring o'tkazdi. Monitoring tahlillarida 1000 dan ortiq turli obyekt o'rganilib, natijasi yuzasidan aniq taklif va tavsiyalar berilgan. Vazirlik va mahalliy hokimiyat idoralarga 120 dan ortiq ma'lumot va taklif yuborildi.

Shunga muvofiq, 54 ta jamoatchilik eshituvi tashkil etildi, ulardan 6 tasi Oliy Majlis Senati bilan hamkorlikda o'tkazildi.

Yil davomida xalq deputatlari tuman kengashlariga 21 ta va viloyat kengashlariga 25 ta masala kiritilib, ijrosi ijobiy ta'minlanishiga erishildi. Xuddi shunday, jamoatchilik loyihalari (rezonansli mavzular) ilgari surilib, 61 ta muammo hal etildi.

Joriy yildagi davlat dasturini ishlab chiqish va qabul qilish jarayonida aholi va ekspertlar tomonidan qaysi yo'nalishlar ko'proq muhokama qilindi?

— Bu yilgi davlat dasturi mamlakatimiz hayoti uchun dolzarb ahamiyat kasb etadigan eng muhim masalalar, jumladan, "yashil rivojlanish" borasida O'zbekistonning o'ziga xos taraqqiyot yo'lini belgilab beradigan hujjat bo'ldi, desak mubolag'a bo'lmaydi. 5 ta ustuvor yo'nalishni qamragan ushbu dasturda aholi salomatligini mustahkamlash, ekologik turmush tarzini shakllantirish va inson salohiyatini ro'yobga chiqarish uchun sharoit



halarga qo'l uriladi. **"Bir million yashil oila" umummilliy harakati** shulardan biri.

Ekologik tamoyillarni o'zining kundalik hayotiga joriy etishda yuqori ko'rsatkichlarga erishganlarga **"Ekofaol fuqaro" maqomi beriladi** hamda ular uchun davlat xizmatlaridan foydalanishda 10 foiz chegirma va davlat ulushi 50 foizdan yuqori bo'lgan banklarda iste'mol kreditini

5 ta muhim yo'nalishdan iborat davlat dasturining mazmuni, unda belgilangan ustuvor maqsadlar mohiyatan xalqimizning farovon turmushi, xavfsiz va sog'lom yashashini ko'zda tutadi. "Yashil iqtisodiyot" tamoyillarini keng joriy qilish, iqtisodiyotni iqlim o'zgarishiga moslashtirishga qaratilgan loyihalarni barqaror moliyalashtirish, "yashil transport"ni joriy etishga qaratilgan maqsadlar bugungi ekologik vaziyatda muhim ahamiyat kasb etmoqda.

USHBU MAQOLANI QORAQALPOQ TILIDA HAM O'QISH UCHUN QR-KODNI SKANER QILING!



yaratish, respublikamiz energobalansida qayta tiklanuvchi energiya ulushini oshirish, shu jumladan, davlat-xususiy sheriklik asosida yirik "yashil" elektr stansiyalarini qurish bo'yicha qator vazifalar belgilangan. Muhokamalarda ham ayni shu yo'nalishda bahs-munozaralar ko'proq bo'ldi.

Ekspertlar va aholi tomonidan bildirilgan taklif va tavsiyalar, fikr-mulohazalar inobatga olingan holda bu yil "yashil iqtisodiyot" tamoyillarini keng joriy qilish, iqtisodiyotni iqlim o'zgarishiga moslashtirishga qaratilgan loyihalarni barqaror moliyalashtirish ko'zda tutilmoqda. Respublika energobalansida qayta tiklanuvchi energiya ulushini oshirish, shu jumladan, davlat-xususiy sheriklik asosida yirik "yashil energiya" stansiyalarini barpo etish, hududlarda kichik va mikro gidroelektr stansiyalari tarmog'ini kengaytirish, aholi xonadonlarida quyosh panellarini o'rnatishni rag'batlantirishga alohida e'tibor qaratiladi.

Iqtisodiyot tarmoqlari va ijtimoiy sohada zamonaviy energotejamkor texnologiyalarni keng qo'llash orqali iqtisodiyotni "uglerod izi"ni kamaytirish hamda ekologik barqarorlikka yo'naltirilgan hududlar va tarmoqlararo muvofiqshartiruvni ta'minlash borasidagi ishlar ham kengayadi.

Ekologik barqarorlikni ta'minlash keng qamrovli masala. Bu borada ko'zlangan maqsadga erishish uchun butun jamiyatning hamjihatligi va birdamligi talab etiladi. Ayniqsa, aholining faol ishtirokisiz muayyan natijaga erishish qiyin. Ana shu jihatlardan e'tiborga olinib, davlat dasturida ekologik muammolarni hal etishda yurtdoshlarimizning faolligini oshirishga alohida e'tibor qaratilgan ayni muddao bo'ldi.

Xususan, mamlakatimizda amalga oshirilayotgan ekologik loyihalarga hamohang tarzda endilikda yana bir qator yangi loyi-

olishda chegirma taqdim etiladi. Oilaning barcha voyaga yetgan a'zolari "Ekofaol fuqaro" maqomini olganda, ushbu oilaga "yashil oila" maqomi beriladi. Bunday oilalarga har yili ochiq tanlov orqali 14 ta elektromobil berish ko'zda tutilmoqda.

Aholisining yarmi "yashil oila" maqomini olgan mahallalarda "Eng toza mahalla" va "Eng yashil mahalla" tanlovlari o'tkaziladi. G'olib mahallalar jamg'armasiga o'sha hududda yashovchi aholi takliflarini o'rganigan holda mahallaning ichki infratuzilmasini yanada yaxshilash tadbirlarini moliyalashtirishga ko'maklashiladi.

Xususan, yo'llarni ta'mirlash, energotejamkor yoritish uskunalarini o'rnatish, bolalar maydonchasi qurish, "yashil bog'" yaratish va o'rindiqlar o'rnatish, chiqindi yig'ish maydonchalari qurish, chiqindi qutilari

va konteynerlarini o'rnatishga 500 million so'm ajratish ko'zda tutilmoqda.



Mahallalarning ekologik qiyofasini yaxshilash, ko'chalarda yashillik darajasini oshirish, ekologik jihatdan qulay va farovon yashash muhitini yaratishga qaratilgan ishlar izchil davom etadi. Shu maqsadga aholi uchun barpo etilayotgan piyodalar va alohida velosiped yo'laklari bo'yida daraxtlar va boshqa o'simliklarni ekish orqali "Soyali sayr ko'chalari" tarmog'i yaratiladi. Sohil va daryo bo'yilarida 80 ta infratuzilma obyekti va 110 kilometrdan ortiq sog'lomlashtirish yo'lga quriladi. Yomg'ir va oqova suvdan samarali foydalanish, mahallalardagi daraxtlarni zamonaviy suv tejovchi texnologiyalar orqali sug'orish tizimini joriy etish natijasida yashillik darajasi oshirilishiga erishiladi.

"Yashil makon" umummilliy va "Mening bog'im" loyihalari doirasida 200 million tup

daraxt hamda buta ekilishi, "yashil bog'lar" va "yashil jamoat parklari"da quyosh panellari yordamida quvvatlanuvchi yoritgichlardan foydalanilishi ham ekologik muhitni yaxshilashda o'z natijasini beradi.

Chang-to'zonlarga qarshi kurashish bugungi kunga kelib, butun dunyoda global muammoga aylandi. Bunday nomaqbul ekologik vaziyatning salbiy ta'sirini biz ham qattiq his qilyapmiz. Shu bois, bu masalalarga jiddiy yondashilib, bir qator vazifalar belgilangan.

Xususan, atmosfera havosi ifloslanishining oldini olish, sanoat korxonalarini va issiqxonalarida chang-gaz va lokal suv tozalash uskunalarini bosqichma-bosqich o'rnatish bo'yicha dastur ishlab chiqib, ijrosini ta'minlash belgilandi. Buning uchun ekologik barqarorlikni ta'minlashga hissa qo'shgan ishlab chiqaruvchilarni rag'batlantirish maqsadida 2025-yil 1-sentabrda boshlab tadbirkorlik subyektlarini "yashil tadbirkor" sifatida e'tirof etish ko'zda tutilmoqda. Bunday maqomga erishgan tadbirkorlar har tomonlama qo'llab-quvvatlanadi.

Shuningdek, iqtisodiyotni dekarbonizatsiya qilish va iqlim o'zgarishiga moslashtirishga qaratilgan loyihalarni barqaror moliyalashtirish maqsadida "yashil moliyalashtirish" tizimini shakllantirish bo'yicha milliy dastur ishlab chiqilishi belgilandi. Bunday xayriy ishlar jamiyatimizdagi islohotlarda xalqimizning faolligini oshirish, yurt taqdiriga daxldorlik tuyg'usini kuchaytirishda o'z samarasini beradi.

Qonun ustuvor demokratik davlat, ochiq va shaffof, adolatli jamiyat barpo etish yurtimizdagi islohotlarning muhim yo'nalishiga aylangan. Bu jarayonda fuqarolik jamiyati institutlarining davlat boshqaruvi, iqtisodiy va siyosiy jarayonlardagi ishtiroki muhim ahamiyatga ega. Davlat dasturida bu masalalar yechimi bo'yicha aniq chora-tadbirlar ko'zda tutilganmi? "Yuksalish" harakati bu borada qanday ishlar qilyapti?

— 2024-yilda ham xalqaro tashkilotlar bilan faol hamkorlikni davom ettirdik. Yil davomida Evropa Ittifoqining O'zbekistondagi delegatsiyasi, Shveysariya taraqqiyot va hamkorlik agentligi, UNICEF, Yevrosiyo fondi, KOICA, Latviya Tashqi ishlar vazirligi va Germaniya Iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot vazirligi (BMZ), "Mintaqaviy muloqot" xalqaro nuhumat tashkiloti kabilardan mamlakatimiz rivoji uchun 1,5 million dollardan ortiq miqdorda mablag' jalb qilishga erishildi.

Xususan, "Xalqaro huquqni O'zbekistonda qo'llash sifatini oshirish" (EQUAL) uch yillik loyihasi muvaffaqiyatli amalga oshirildi. Loyiha doirasida qator jamoatchilik muhokamalar va konferensiyalar o'tkazilib, BMTning nogironlar huquqlari to'g'risidagi konvensiyasini amalga oshirish, fuqarolik jamiyatining roli, ayollar va bolalarni zo'ravonlikdan himoya qilish chora-tadbirlari, shuningdek, badiiy ijod erkinligi va boshqa madaniy huquqlarni himoya qilishga oid masalalar muhokama qilindi.

Umuman olganda, 20 dan ortiq xalqaro tashkilot bilan hamkorlik qilinmoqda. Ular bilan hamkorlik doirasida 3 ta shaharga bolalar va yoshlar tashabbuslarini qo'llab-quvvatlash uchun 30 ming dollardan mablag' ajratildi. 5 ta

loyiha uchun 15 ming dollar qiymatda kichik grantlar taqdim etildi.

2 ta NNT va Jamoatchilik siyosati maktabi tashkil etildi. Og'ir vaziyatga tushib qolgan va nogironligi bo'lgan 650 nafardan ziyod yoshga bepul huquqiy va psixologik maslahatlar berildi, 460 dan ortiq yosh kasbga o'qitildi.

Oltmishga yaqin tadqiqot va so'rovnomalar, trening va maslahat uchrashuvi o'tkazilib, mingdan ziyod fuqaro qamrab olindi. To'rt yuzga yaqin jamoatchilik monitoringi tashkil etildi. 100 dan ortiq jamoatchilik muhokamasi va eshituvi o'tkazildi.

Prezident Administratsiyasi, Oliy Majlis, Vazirlar Mahkamasi va boshqa markaziy idoralarga 15 ta tahliliy ma'lumotnoma hamda 359 ta tahliliy material mahalliy davlat organlariga kiritildi.

Jamoatchilik monitoringlari natijadorligiga alohida e'tibor qaratildi. Aniqlangan xato va kamchiliklarni davlat organlari va mansabdor shaxslar tomonidan bartaraf etish ta'minlandi.

Aholining ijtimoiy kayfiyatiga ta'sir ko'rsatadigan bir necha masalalar yuzasidan shaxsan davlatimiz rahbariga ma'lumot va takliflar kiritildi. Yangi qurilayotgan binolarning seysmik xavfsizligini baholash tizimini o'rganish natijalari, jamoat transportidagi muammolar, "Tashabbusli budget" jarayonini o'rganish natijalari bo'yicha takliflar shular jumlasidan.

2025-yilga mo'ljallangan davlat dasturidagi chora-tadbirlarni hayotga tatbiq etish, bu jarayondagi ilg'or tajribalarni yurtimizda va xorijda keng yoyish borasida "Yuksalish" tomonidan qanday ishlar amalga oshiriladi?

— "Yuksalish" harakati faoliyatini jadallashtirib, yangi vazifalarni amalga oshirishni rejalashtirmoqda. Prezidentimizning 2024-yil 26-avgustdagi "Fuqarolik jamiyati institutlarini davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi farmoniga ko'ra, endi har yili jamoat kengashlari faoliyatini samaradorlik bilan baholashni, Ushbu tadqiqotlar natijalari "Yuksalish" harakatining rasmiy manbalarida e'lon qilinadi.

Shuningdek, davlat dasturida belgilangan vazifalarning o'z vaqtida va sifatli bajarilishi yuzasidan hamda jamiyatda dolzarb bo'lib turgan mavzularda Oliy Majlis Senati bilan hamkorlikda jamoatchilik eshituvlari, jamoatchilik monitoringi o'tkazilishi ko'zda tutilgan.

O'zbekistonda ijtimoiy tadbirkorlikni rivojlantirish va ijtimoiy tadbirkorlarga ko'maklashish maqsadida 25 ta ijtimoiy tadbirkorlik loyihasini amalga oshirayotgan tadbirkorlar mutaxassislarini jalb qilgan holda treninglar o'tish, "Hayot ulash" aksiyasi doirasida 2 ta viloyatning chekka hududlarida aholini ichimlik suvi bilan ta'minlash uchun quduqlar qazish, respublika bo'yab 2000 dan ziyod aholini ichimlik suvi bilan ta'minlash kabilor rejalashtirilgan.

"Yangi O'zbekiston" muxbiri Bahor XIDIROVA suhbatlashdi.

MALAYZIYANING

“AQLLI” QISHLOQ XO‘JALIGI

O‘zbekiston agrar tarmog‘ida keng qo‘llanadi

tomonlar istiqbolda oliy ta‘lim muassasalari o‘rtasidagi aloqalarni yanada kengaytirish, akademik mobillik dasturlarini rivojlantirish, qo‘shma ta‘lim dasturlarini joriy etish hamda ilmiy tadqiqotlar ko‘lamini oshirishni qayd etdi.

Qishloq xo‘jaligi vazirligi va Toshkent davlat agrar universiteti vakillari Malayziyaning yirik CelcomDigi telekomunikatsiya korporatsiyasiga borib, innovatsion texnologiyalar bilan tanishdi. Ushbu korporatsiya bugun 5G va sun‘iy intellekt (AI) texnologiyalarini qishloq xo‘jaligida qo‘llamoqda. Raqamli

ishlash hamda xalqaro standartlarga mos ravishda eksporti kengaytirish imkoniyatini beradi.

Hozir Malayziyada yetishtirilayotgan baliqlar umumiy hajmining 30 foizi akvakultura usulida, ya‘ni baliqchilikning ilg‘or intensiv texnologiyalari yordamida yetishtirilmoqda. 2030-yilga borib, bu ko‘rsatkich 40 foizga yetkazilishi maqsad qilingan. Malayziya aholisi yilliga o‘rtacha 59,6 kilogramm baliq va baliq mahsulotlari



Narzullo OBLUMURODOV,
Toshkent davlat agrar universiteti rektori

Boshlanishi 1-betda

Tashrif davomida juda ko‘p soha bo‘yicha ushbu mamlakatning O‘zbekistonga hamkorlik eshiklari ochildi, deyishga asoslar yetarli. Malayziyaning ilm-fan, qishloq xo‘jaligi, innovatsiya va boshqa o‘nlab sohada mamlakatimiz bilan yaqin hamkorlik munosabati o‘rnatish uchun dadil qadam qo‘yilganini butun safarimiz davomida his etdik.

Uchrashuv davomida O‘zbekiston Prezidenti va Malayziya Bosh vaziri tomonidan imzolangan ikki davlat o‘rtasidagi keng ko‘lamli sheriklikni yanada rivojlantirishga qaratilgan qo‘shma bayonot va salmoqli bitimlar to‘plami “yashil” texnologiyalarni rivojlantirish, qayta tiklanadigan va energiyani yangi manbalardan foydalanishni kengaytirish, investitsiyalar, innovatsiyalar, “aqli” qishloq xo‘jaligi, turizm, yuqori texnologiyalar, ta‘lim sohasidagi munosabatlarni yanada kengaytirishga xizmat qiladi. Ayniqsa, 2025-2026-yillar O‘zbekiston — Malayziya sherikligini innovatsion rivojlantirish davri deb e‘lon qilingan alohida ahamiyatga ega. Zotan, mamlakatimizda bugun innovatsion sanoat, “aqli” qishloq xo‘jaligi, “yashil” energetika, ziyorat turizmi kabi istiqbolli sohalarni rivojlantirishga qaratilgan sa‘y-harakatlarning bunday hamkorlik bilan uyg‘unlashuvi kelgusi ikki yilda katta amaliy natija ko‘rsatadi.

Mamlakatimizda ta‘lim sohasi, o‘zaro akademik almashuvlar va kadrlar tayyorlash borasidagi hamkorlikni kengaytirish dolzarb masala. Hozir O‘zbekistonda turli xorijiy oliy ta‘lim muassasalarining 30 ga yaqin filiali faoliyat yuritmoqda. Markaziy Osiyoning “ta‘lim markazi” sifatida energetika, “aqli” qishloq xo‘jaligi, islom banki, ekologiya, sun‘iy intellekt, halol sanoat, kreativ iqtisodiyot va boshqa yo‘nalishlarda kadrlar tayyorlash bo‘yicha Malayziya universitetlari bilan hamkorlik yo‘lga qo‘yilishi esa bu ishlarga yangicha quvvat va rag‘bat beradi. Eng muhimi, Malayziya tomoni ham bu hamkorlikka katta qiziqish bilan qarayapti.

Aholini sifatli oziq-ovqat bilan ta‘minlash, xalqaro darajadagi sifat sertifikatlarini keng joriy etish uchun davlatimiz rahbari tomonidan soha mutaxassislariga oldinga aniq vazifalar qo‘yilgan. Malayziyaga tashrif natijasida har ikki mamlakat qishloq xo‘jaligi, oziq-ovqat xavfsizligi va “Halol” standartlari kabi sohalarda o‘zaro aloqalarni faol bosqichga olib chiqishga kelishilgan mamlakatimiz oziq-ovqat xavfsizligi uchun katta natijadir. Zero, Malayziya halol mahsulotlarning eng yirik eksportchilaridan.

Endi Malayziyani O‘zbekistonning muhim innovatsion va texnologik hamkori deya bemaol ayta olamiz. Kelgusida mamlakatimizda “aqli” qishloq xo‘jaligi texnologiyalarini joriy etish, organik mahsulotlar yetishtirish kabi yo‘nalishlarda ham yaqqol natija ko‘rsatadigan qo‘shma loyihalarga start berildi. Jumladan, Malayziyaning “Meraque” kompaniyasi bilan hamkorlikda Qishloq xo‘jaligini mexanizatsiyalashtirish ilmiy-tadqiqot instituti hududida “aqli” qishloq xo‘jaligi texnikalari va dronlarni mahalliyashtirgan holda ishlab chiqarish bo‘yicha kelishuvga erishildi.

Ilm-fan, oliy ta‘lim sohalarida O‘zbekiston va Malayziyaning faol hamkorligi eng istiqbolli yo‘nalishlardan biri sifatida e‘tirof etilayotgani bejiz emas. Chunki qadimdan ilm-fan beshigi bo‘lgan O‘zbekistonda bugun zamonaviy ta‘lim yutuqlarini keng joriy etib kelayotgan Malayziya oliy ta‘lim dargohlari bilan hamkorlik juda dolzarb.

Oliy darajadagi tashrif doirasida ikki mamlakat yetakchi oliy ta‘lim muassasalari rektorlari ishtirokida “Barqaror rivojlanish maqsadlariga erishishda oliy ta‘lim sohasidagi imkoniyatlar va tashabbuslar” mavzusida birinchi O‘zbekiston — Malayziya ta‘lim forumi o‘tkazildi. Uning ochilish marosimida O‘zbekiston oliy ta‘lim, fan va innovatsiyalar vaziri Qo‘ng‘irov Sharipov hamda Malayziya oliy ta‘lim vaziri Zamri Abdul Kadir so‘zga chiqib, ikki mamlakat o‘rtasida oliy ta‘lim sohasida mustahkam hamkorlik yo‘lga qo‘yilganini ta‘kidladi. Shuningdek,



texnologiyalar yordamida “aqli” qishloq xo‘jaligini amaliyotga tatbiq etib, masofadan turib ekin maydonlarini nazorat qilishni yo‘lga qo‘ygan. Ushbu zamonaviy tajribalar bilan atroflicha tanishib, ularni mamlakatimizda amaliyotga tatbiq etish borasida kelishuvga erishildi.

Shuningdek, Malayziyaning yetakchi universitetlaridan biri — Asia Pacific University of Technology & Innovation (APU) bilan hamkorlik yo‘lga qo‘yildi. Ushbu oliy ta‘lim muassasasi Malayziyaning birinchi raqamli texnologik universitetidir. Ushbu nufuzli ta‘lim dargohi bilan qishloq xo‘jaligiga yangi texnologiya va innovatsiyalarni joriy qilish, raqamli loyihalarni amalga oshirish yuzasidan memorandum imzoladik. Memorandum doirasida Toshkent davlat agrar universitetida qishloq xo‘jaligida innovatsiyalar markazini tashkil etish ko‘zda tutilmoqda.

Bundan tashqari, University Technology MARA (UiTM) bilan tuproqshunoslik, qishloq xo‘jaligi mexanizatsiyasi, agronomiya, o‘simliklar himoyasi, agrobiznes va boshqa yo‘nalishlar bo‘yicha o‘zaro hamkorlik memorandumini imzoladi. Kelgusida professor-o‘qituvchilar va talabalar almashuvini yo‘lga qo‘yiladi. Ilmiy tadqiqot va ilmiy loyihalarni amalga oshirish, qishloq xo‘jaligi bo‘yicha yozgi va qishki maktablar tashkil etish, ilmiy anjuman va nashrlarda hamkorlik qilishga kelishib olindi.

Mazkur universitetning AgroTech Plantations ilmiy-tajriba xo‘jaligi faoliyati bilan tanishib, kauchuk, qahva, choy va sitrus mevalar yetishtirish tajribasini o‘rgandik. Kelgusida o‘zbekistonlik talabalar va yosh olimlar ham ushbu tajriba xo‘jaligida amaliyot o‘tab, tadqiqotlar o‘tkazish imkoniyatiga ega bo‘ladi.

Iqlim sharoiti va tabiiy resurslari o‘ziga xos bo‘lgan mamlakatimiz qishloq xo‘jaligi sohasida hamkorlik qilishi juda istiqbolli. Xususan, O‘zbekistonning serquyosh yeri va boy dehqonchilik an‘analari Malayziyaning ilg‘or texnologiyalari va investitsiyaviy salohiyati bilan uyg‘unlashsa, agrar sohada yangi yutuqlarga erishish mumkin. Bugun ikki mamlakat o‘rtasida agrosanoat kompleksini rivojlantirish, eksport-import aloqalarini kengaytirish va qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini chuqur qayta ishlash kabi yo‘nalishlarda istiqbolli loyihalarni amalga oshirish katta ahamiyat kasb etadi.

Tashrif chog‘ida oziq-ovqat masalalari bo‘yicha qishloq xo‘jaligining baliqchilik, o‘simliklar himoyasi va sholichilik yo‘nalishlarida hamkorlikni rivojlantirishga alohida e‘tibor qaratildi. Xususan, baliqchilik sohasida tajriba almashish va qo‘shma loyihalarni amalga oshirish bo‘yicha kelishuvlarga erishildi. Jumladan, Toshkent davlat agrar universiteti delegatsiyasi bilan Malayziya SAG SDN.BHD kompaniyasi o‘rtasida chorvachilik va baliqchilik sohalarida hamkorlik yuzasidan kelishuvlarga erishildi.

Mazkur hamkorlik mamlakatimizda chorvachilik va baliqchilikda innovatsion texnologiyalar va ilg‘or usullarni joriy etish, ikki tomon olimlari hamda chorvadorlari o‘rtasida tajriba almashish, mahalliy va xorijiy zotlar asosida chorva mahsulotlarini oshirish, go‘sht va sut mahsulotlarini qayta

iste‘mol qilmoqda. Bu esa jahon o‘rtacha ko‘rsatkichidan 2,5 barobar ko‘p.

Qishloq xo‘jaligi mahsulotlari yetishtirish hajmini oshirishning asosiy omili sifatida ozuqaga borib taqaladi. Malayziya esa baliqlar uchun yuqori sifatli, to‘yimli yem ishlab chiqarishda katta tajribaga ega. Ishlab chiqarilayotgan ozuqa tarkibi muvozanatlashirilgan va baliqlarning o‘sishi hamda rivojlanishi uchun zarur moddalar, vitaminlar va mineralarga boy. Ushbu mamlakat tajribasini qo‘llash orqali O‘zbekistonda so‘nggi yillarda keng ommalashayotgan istiqbolli akvakulturani yanada rivojlantirishga erishish mumkin. Bu esa mamlakatimiz aholisiga ekologik toza va sifatli baliq mahsulotlari yetkazib berish hajmini yanada oshirish imkonini beradi.

O‘zbekiston va Malayziya olimlari o‘rtasidagi ilmiy hamkorlik ham juda serqirra. Kelgusida ikki davlat agrar oliy ta‘lim muassasalari o‘rtasida talabalar va mutaxassislar almashuvini hamda qo‘shma ta‘lim dasturlarini, urf-odatlar va madaniy o‘simliklar karantini va himoyasi sohasining dolzarb mavzulari bo‘yicha qo‘shma loyihalarni amalga oshirishni maqsad qilganmiz.

Sholi yetishtirish bo‘yicha Malayziya tajribasini alohida ta‘kidlash joiz. Mamlakatimizning ekstremal — qung‘oqchil va jazirama tuproq-iqlimi sharoitiga mos navlar yaratish, sohaga raqamli qishloq xo‘jaligini joriy qilish, innovatsion texnologiyalar asosida ko‘chat yetishtirish uslubida asosiy va takroriy ekin sifatida sholi yetishtirish dolzarb. Malayziya esa bu borada katta tajriba to‘plagan. Shundan kelib chiqib, Sholichilik ilmiy-tadqiqot instituti va Toshkent davlat agrar universiteti olimlari ishtirokida sholi yetishtirish yo‘nalishida ilmiy hamkorlikda loyihalar amalga oshirilmoqda.

O‘zbekiston va Malayziya o‘zaro hamkorlikning aksariyat yo‘nalishi bo‘yicha manfaatlar musharakat ishonchli hamkorlar ekanini o‘ziga o‘zaro manfaatli darajadagi tashrifda yaqqol ifodasini topdi. Ikki mamlakat o‘rtasidagi ta‘lim, ilm-fan va innovatsiyalar sohasidagi o‘zaro manfaatli hamkorlik qishloq xo‘jaligi, oziq-ovqat xavfsizligi va boshqa ustuvor yo‘nalishlarda zamonaviy kadrlar tayyorlash va malakasini oshirish, yangi texnologiyalar va innovatsion yechimlarni tatbiq etish uchun keng yo‘l ochadi.

ILIQ VA DO‘STONA
MUNOSABATLARNING YANGI BOSQICHI

Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyevning shu yil 4-5-fevral kunlari Malayziyaga rasmiy tashrif ikki tomonlama munosabatlarni strategik sheriklikka olib chiqishga zamin yaratuvchi tarixiy tashrif bo‘lgani bilan tarixda qoladigan bo‘ldi. Zero, so‘nggi 20-yildagi ushbu ilk rasmiy tashrif doirasida iqtisodiyot, “yashil” energetika, ta‘lim, tibbiyot, raqamli texnologiyalar kabi qator sohalar bo‘yicha erishilgan kelishuvlar tomonlar uchun katta manfaat keltirishi bilan ahamiyatli.



Dilbar MAMAJONOVA,
Oliy Majlis Qonunchilik palatasi deputati

intellekt va zamonaviy axborot texnologiyalari imkoniyatlaridan foydalanish keng tus olmoqda. U asosida ishlovchi kasbiy-malakaviy moslik bo‘yicha dasturning O‘zbekiston sharoitida qo‘llanilishi norasmiy sektorda band bo‘lgan, ayniqsa, bir martalik ish bozorlaridagi ish qidiruvchilarning bandligini ta‘minlashga va ularni ijtimoiy himoya bilan qamrab olishga imkon beradi.

Sun‘iy intellektga asoslangan loyihalarni O‘zbekiston sharoitida mavjud dasturlar va davlat idoralari qo‘llanilgan ma‘lumotlar bazasini integratsiyalashtirish va kengaytirish orqali ko‘rib chiqish mumkin.

Birinchi bosqichda tegishli xodim-mutaxassis tomonidan mezonlar baholanishi yo‘lga qo‘yilsa, tizim rivojlanishi bilan bu jarayon keyingi bosqichda avtomatik tarzda amalga oshirilib, inson omiliga o‘rin qolmaydi. Shunga o‘xshash “onlayn ariza” berish tajribasi imtiyozli ipoteka kreditlari va to‘lovlar bo‘yicha amalga oshirilayotgan davlat subsidiyalarni ajratishda qo‘llanilmoqda.

Aytish joizki, sun‘iy intellekt asosini ma‘lumotlar bazasi tashkil etadi, ularning manbasini turlicha bo‘lishi mumkin. Ma‘lumotlar bazasini esa muntazam to‘ldirish va kengaytirish sun‘iy intellekt tahliliy imkoniyatlari va samaradorligini oshiradi. O‘zbekistonda hozir mavjud ma‘lumotlar bazasidan mahalliy sun‘iy intellekt ma‘lumotlar bazasini shakllantirish va ulardan samarali foydalanish mumkin.

Shuningdek, jahon tajribasida ijtimoiy sohaga yo‘naltirilgan dasturlarda sun‘iy intellekt ma‘lumotlar bazasini shakllantirishda milliy ID tizimlar ma‘lumotlari, aholini ro‘yxatga olish va soliq to‘lovchilar bazasi, tibbiyot, bank, sug‘urta kompaniyalari va boshqa bozorlar dasturlari, mobil aloqa operatorlari ma‘lumotlari hamda aholining kommunal to‘lovlari va qarzdorlik, kredit tarixi, ijtimoiy tarmoqlardagi faolligi kabi manbalardan qonun doirasida foydalaniladi.

O‘z navbatida, sun‘iy intellekt va AKTni joriy qilishda shaxsga doir ma‘lumotlar va shaxsiy hayotga oid huquqlar hamda ulardan milliy xavfsizlikni ta‘minlash yo‘lida foydalanishda muvozanatni saqlash muhim ahamiyatga ega.

Shu nuqtayi nazardan, mamlakatimizda sun‘iy intellekt imkoniyatlari va texnologiyalarini ijtimoiy himoya dasturlarida qo‘llash imkoniyatlari va zarurati mavjud, tegishli dasturlash yo‘nalishlaridagi yetakchi mahalliy mutaxassislar va xorijiy kompaniyalarni jalb qilgan holda sun‘iy intellekt texnologiyalarini joriy qilish va qo‘llash maqsadga muvofiq.

Sun‘iy intellekt yoki turli dasturiy ta‘minotlar va AKTni tegishli sohalariga joriy qilishda yuzaki yondashuv, birinchidan, loyihalarning kutilgan natija bermasligiga, ikkinchidan, sarflangan byudjet mablag‘lari samarasiz bo‘lishiga olib kelishi, uchinchidan, zamon talabiga mos bo‘lmagan dastur va tizimlar kibernetikachilarning nishoniga aylanib, milliy xavfsizlikka putur yetkazishi mumkin. Shuning uchun bunday muhim dasturlar sohaning yetakchi mahalliy va xorijiy mutaxassislari, kompaniyalari tomonidan amalga oshirilishi talab etiladi.

Tashrif davomida 2025-2026-yillarning O‘zbekiston — Malayziya sherikligini innovatsion rivojlantirish davri deb e‘lon qilinishi, shubhasiz, yurtimizda investitsiya loyihalarni amalga oshirishga keng imkoniyat beradi. Bu orqali ko‘plab yangi ish o‘rinlari yaratiladi, yoshlar bandligi ta‘minlanadi.

Ko‘p qirrali hamkorlikni chuqurlashtirish to‘g‘risida qo‘shma bayonot imzolangan, yuqori texnologik loyihalarni ilgari surish maqsadida yurtimizda O‘zbekiston — Malayziya sanoat zonasi tashkil etishga kelishilgan tom ma‘noda O‘zbekiston va Malayziya taraqqiyotini yangi bosqichga ko‘tarishi aniq.

Bir so‘z bilan aytganda, ushbu tashrif O‘zbekiston — Malayziya munosabatlarida muhim voqea, mamlakatlarimiz o‘rtasidagi iliq va do‘stona munosabatlarni sifat jihatidan yangi bosqichga ko‘tarish, pirovardida esa o‘zaro ishonch va anglashuv poydevoriga asoslangan ikki tomonlama hamkorlikda yangi sahifa ochishga xizmat qiladi.

Gap O‘zbekiston — Malayziya hamkorligi, tashrifning davlatlarimiz uchun foydali tomonlari haqida borar ekan, avvalo, ikki mamlakat rahbarlari o‘rtasidagi samimiy munosabatga to‘xtalib o‘tish joiz. Zero, davlatimiz rahbarining ushbu mamlakatga safarini oynai jahon orqali kuzata turib, bir narsaga to‘la ishonch hosil qildimki, bu tashrif samimiy o‘tdi. Malayziya Bosh vaziri Anvar Ibrahim Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyevga butun kun davomida, barcha rasmiy tadbir va uchrashuvlarda hamrohlik qilgani yoki davlatimiz rahbarini kutib olishga Malayziya parlamenti spikeri chiqqani, ya‘ni mezbun tomon qat‘iy protokol qoidalardan chekinib, yuksak hurmat va ishonch namoyish etgani davlatlarimiz o‘rtasidagi hamkorlik o‘zaro hurmat va ishonchga asoslangan, o‘z navbatida, istiqbolli ekanidan dalolat beradi.

O‘zbekiston Prezidenti sharafiga uyushtirilgan rasmiy qabul marosimida Malayziya san‘atkorlari o‘zining boy tarixi va madaniyati bilan bir qatorda xalqimizning kuy-qo‘shiq, raqslaridan iborat konsert dasturini namoyish etgani alohida e‘tibor ifodasi bo‘ldi. Bu jihat ham O‘zbekiston va Malayziya xalqlarining bir-biriga yuksak hurmati va ikki tomonlama munosabatlarning porloq istiqbolidan darak beradi.

Tashrif doirasida Prezidentimiz va Malayziya Bosh vaziri Kuala-Lumpur shahrida qo‘shma biznes-forumda ishtirok etdi. O‘zbekiston — Malayziya sammitida 5 milliard dollarlik savdo-iqtisodiy bitimlar imzolangan va madaniy-gumanitar sohadagi hamkorlik bo‘yicha kelishuvlarga erishilgan savdo-iqtisodiy va investitsiyaviy aloqalarini yanada mustahkamlaydi. O‘z navbatida, bu Malayziyaning mamlakatimiz iqtisodiyotiga samoya jalb etish tarafdori ekanini yaqqol ifodalaydi.

Davlatlarimizni azaldan tarixiy, an‘anaviy do‘stlik ristalari, urf-odatlar va madaniy qadriyatlarining o‘xshashligi bog‘lab turadi. So‘nggi yillarda an‘anaviy do‘stlik va hamkorlik aloqalari yangi zamon ruhida rivojlanmoqda. O‘zbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoyev va Malayziya Bosh vaziri Anvar Ibrahim o‘rtasidagi faol va ishonchli siyosiy muloqot

tufayli bugun ikki davlat hamkorligi yangi mazmun bilan boyib, yanada yuqori darajaga ko‘tarilmoqda. Siyosiy muloqot faollashib, tomonlar xalqaro tashkilotlar doirasida bir-birini samarali qo‘llab-quvvatlamog‘da.

Aslida, ikki davlat o‘rtasidagi aloqalar uzoq tarixga borib taqalsa-da, so‘nggi 17 yil ichida ilk bor Malayziya Bosh vaziri Anvar Ibrahim o‘tgan yili may oyida mamlakatimizga rasmiy tashrifini amalga oshirdi. Oliy darajadagi bu tashrif ikki tomonlama munosabatlarda tarixda yangi davrni boshlab berdi.

Mamlakatlarimiz geografik jihatdan bir-biridan olis bo‘lishiga qaramay, transport-logistika imkoniyatlari kengayib bormoqda. Poytaxtlarimiz o‘rtasida deyarli har kuni to‘g‘ridan to‘g‘ri aviaqatnovlar amalga oshirilmoqda.

Ikki davlat o‘rtasidagi parlamentlararo muloqotlar ham sifat jihatidan yangi bosqichga ko‘tarilmoqda. Xususan, Malayziya parlamenti Vakillar palatasi spikeri Joxari bin Abdul 2023-yilda O‘zbekistonga keldi. 2024-yil iyul oyida Oliy Majlis Qonunchilik palatasi spikeri Nuriddin Ismoilov Malayziyaga tashrif buyurdi. Ikki davlat parlamentlari o‘rtasida tuzilgan do‘stlik guruhlari faoliyati ham faollashmoqda.

Malayziya O‘zbekistonning muhim innovatsion va texnologik hamkoridir. Davlatimiz rahbari O‘zbekiston — Malayziya ishbilarmonlik hamkorligini yanada rivojlantirishning qator ustuvor yo‘nalishlarini ko‘rsatib o‘tdi. Bu, eng avvalo, elektronika va yarimo‘tkazgichlar sanoatida uzoq muddatli hamkorlikni kengaytirishdir.

Malayziya O‘zbekistonning muhim innovatsion va texnologik hamkoridir. Davlatimiz rahbari O‘zbekiston — Malayziya ishbilarmonlik hamkorligini yanada rivojlantirishning qator ustuvor yo‘nalishlarini ko‘rsatib o‘tdi. Bu, eng avvalo, elektronika va yarimo‘tkazgichlar sanoatida uzoq muddatli hamkorlikni kengaytirishdir.

alohida e‘tibor qaratilmoqda. Hozirgi kundagi tezkor texnologik taraqqiyot davrida ular hayotning turli sohalarini rivojlantirishga ta‘sir qiluvchi asosiy omilga aylanib bormoqda.

Zamonaviy sun‘iy intellekt turli amallarni bajarishga mo‘ljallangan algoritmlar va dasturiy tizimlardan iborat bo‘lib, inson ongi bajarishi mumkin bo‘lgan bir qancha vazifalarni axborot bazasiga kiritilgan ma‘lumotlar asosida amalga oshiradi. Shuningdek, u murakkab tahlillar va katta ma‘lumotlar bilan ishlovchi dasturlarni o‘z ichiga olib, mantiqli izchil mulohaza qilish hamda tavsiya berish qobiliyatiga ega “aqli” texnologiya hisoblanadi.

Rivojlangan mamlakatlarda ijtimoiy soha, xususan, sog‘liqni saqlash, ta‘lim, bandlik, ijtimoiy himoya va boshqa yo‘nalishlarda sun‘iy

Suhbatdosh

Dunyoning eng qadimiy va mashhur kutubxonalaridan biri Bodlian kutubxonasida dunyoning turli burchaklaridan olib kelingan noyob osori atiqalar saqlanadi. Bu xazina orasida O'zbekistonning madaniy merosini aks ettiruvchi noyob asarlar, jumladan, qo'lyozmalar, xaritalar va miniatyuralar ham mavjud. Ular Markaziy Osiyoning boy madaniyati, xalqimizning jahon sivilizatsiyasiga qo'shgan ulkan hissasidan dalolat beradi.

Bodlian kutubxonasi Nizomiy Ganjaviy nomidagi Kavkaz, Markaziy Osiyo va Turkiya qo'lyozmalari bo'limi mudiri Nikolas KONTOVAS bilan bu boradagi muhim tadqiqotlar hamda Sharq qo'lyozmalari xazinasi haqida suhbatlashdik.

O'zbekiston zaminida yetishib chiqqan qaysi buyuk allomalar qo'lyozmalari va asarlari Bodlian kutubxonasi qimmatli xazinasi qo'shilgan va ularning ushbu boy fond shakllanishidagi ahamiyati qanday?

O'zbekiston zaminidan shunchalik ko'p taniqli shaxslar yetishib chiqqanki, ularning barchasini ta'riflab berish qiyin. Bizda saqlanayotgan qo'lyozmalar orasida vatan-doshingiz Abu Ali ibn Sino asarlarining nusxasi juda ko'p, sanab hisobiga yetish qiyin. Imom Buxoriy asarlarining esa 16 ta nusxasi mavjud. Mirzo Ulug'bekning "Ziji jadidi Sultoniy" asarining kamida 6 ta nusxasi saqlangan. Buyuk mutafakkir va shoir Alisher Navoiy turli asarlarining eng kamida o'n beshta nusxasi bor. Sharq donishmandlaridan yana biri Abdurahmon Jomiyning asarlari, adashmasam, to'g'on beshta nusxaning eng kamini bir qismini tashkil qiladi. Yana nisbatan kamroq ma'lum bo'lgan, ammo tarixiy ahamiyatini rad etib bo'lmaydigan shaxslarning asarlarini ham topish mumkin. Masalan, Alisher Navoiyning shogirdlaridan Sayfiy Buxoriyning devoni, Amir Temur tarixini

Menimcha, Bodlian kutubxonasi qadimiy asarlaridan biri miloddan avvalgi IV asrga mansub qadimiy Misrda yaratilgan papirus parchasidir. Islomiy qo'lyozmalar kolleksiyasiga kelsak, eng qadimiy asarlardan biri "MS.

yaratilgan kharosthi yozuvi bilan bitilgan qayin qobig'i parchasi mavjud. Bu hozirga qadar men butun Oksford universitetidan topgan Markaziy Osiyoga oid eng qadimiy yozuvni yodgorlik.

So'nggi yillarda O'zbekistonda qo'lyozmalarni yig'ish va o'rganish borasida katta ishlar qilinayotgan va bu jarayon milliy madaniyatimizning yangi sahifalarini ochmoqda. Bugun Bodlian xazinasi Alisher Navoiy, Abdurahmon Jomiy yoki Imom Buxoriy kabi buyuk allomalar yagona nusxadagi qanday qo'lyozmalarini ko'rish mumkin?

Alisher Navoiy "Xamsa"sining temuriylar xonadonining Hirotdagi oxirgi sultoni Badiuzzamon Mirzoning shaxsiy



Amaliy jihatdan esa konferensiyaning ikki muhim natijasi bo'ldi. Birinchisi, Avstriya Fanlar akademiyasi hamkasblarimizning, jumladan, o'zbekistonlik va xorijlik ishtirokchilarning ma'ruzasini maqolaga aylantirib, kitob shaklida nashr qilishni rejalashtirdi. Bu ish, ehtimol, bir yildan bir yarim yilgacha davom etadi, lekin elxoniyalar va temuriylar davrida ko'chirilgan qo'lyozmalarga oid yuqori sifatlil tadqiqotlarni xalqaro saviyada targ'ib qilishda juda muhim.

Ikkinchisi, O'zbekistondagi tadqiqot-chilarning Oksforddagi Sharq qo'lyozmalari va ular bilan ishlashni istaganlarga yordam beruvchi kutubxona haqida xabardor bo'lishi. Oksfordga kelganiga endigina ikki yil bo'lyapti. Mendan avval Bodlian kutubxonasi Markaziy Osiyo

bakalavriat bosqichida o'qiganimda Pekinga borib, xitoy tilini o'rganish uchun stipendiya sohibi bo'ldim. Tilshunos sifatida oldimga qo'lyozma maqsadlarimdan biri kelajakda uyg'ur tilining ijtimoiy vaziyati bo'yicha ilmiy tadqiqot olib borish imkoniyatini topish edi. Xitoydan Chikagoga qaytganimda universitetimizda uyg'ur tili darsi mavjud emasligi boisi, o'zbek tiliga o'tdim. Ikki tilning umumiy grammatikasiga shunchalik oshiq bo'ldimki, turkiy tillarga qiziqishim ortda boshladi. Shu sabab AQSHdagi eng mashhur Markaziy Osiyo tadqiqotlari fakulteti bo'lgan Indiana universiteti magistraturasida o'qishga qaror qildim. Bundan keyin men AQSH, Turkiya yoki Niderlandiyada bo'lsam ham doimo o'zbek, uyg'ur, turk, usmonli va chig'atoy, ya'ni eski turkiy tillari bilan shug'ullanib, ishlaganman. O'zbek tilini o'rganish dastlab ozroq qiyin



O'ZBEKISTON MADANIY MEROSI

BUYUK BRITANIYA KUTUBXONALARIDA SAQLANAYOTGAN NOYOB JAVOHIRLAR



Arab. s. 75" raqamli Qur'on parchasi yoki "MS. Arab. s. 37" raqamli arabcha xat bo'lishi mumkin. Ularning ikkalasi ham VIII-IX asrlarga mansub. Markaziy Osiyo bilan bog'liq eng qadimiy qo'lyozmamiz esa fikrimcha, Is'hoq ibn Ibrohim Forobiyning "Devon ul-adab" asari bo'lib, bu milodiy 983-yilda ko'chirilgan "MS. Huntington 228" raqamli nusxasidir. Shuningdek, universitetimizda Markaziy Osiyoning islomgacha bo'lgan davriga oid qimmatli asarlari ham mavjud bo'lishi mumkin, ammo ular Bodlian kutubxonasida emas, balki Ashmolean muzeyi yoki Pitt Rivers muzeyida saqlanadi. Masalan, Pitt Riversda O'zbekiston, Tojikiston yoki Afg'onistonda VII asrda

kutubxonasi uchun, ya'ni Navoiy hayot bo'lgan paytda ko'chirilgan beshta rasmi nusxasidan to'rttasi Bodlian kutubxonasida saqlanmoqda. Abdurahmon Jomiyning "Al-favoid az-zoiyoiya" degan asarining ham Jomiy hayotligida ko'chirilgan nusxasi mavjud. Shuningdek, "Fotihat ush-shabob" deb atalgan birinchi devonining, muallifning o'limidan faqat ikki yil keyin, 1494-milodiy sanada ko'chirilgan bir nusxasi ham bor. Mutaxassisligim arab tiliga emas, balki fors va turk tillariga qaratilgani uchun Buxoriy asarlarining bizdagi nusxalari ahamiyatini to'liq bilmasam-da, beshtasining IV milodiy asrda ko'chirilgani va nisbatan qadimiy ekanini bilaman. Bundan tashqari, mualliflari keng tanilgan bo'lsa-da, yagona bo'lgan qo'lyozmalarimiz ham mavjud. Masalan, "MS. Huntington 598" raqamli qo'lyozma — 1435-milodiy yilda Eronning Yazd shahrida temuriylar davrida mashhur bo'lgan Jaloliddin Chaqmoq homiyligida Mansur Baxshi ismli kotib tomonidan eski uyg'ur harflarida ko'chirilgan adabiy majmau. Dunyoda shunga o'xshash islomiy kontekstda yozilgan faqat uchta uzun adabiy asar mavjud. Odatda temuriylar bu yozuvni ma'muriy matnlar yoki yorliqlar uchun ishlatar edi. Shuning uchun ham bu qo'lyozma alohida ahamiyatga ega. Shu bilan birga, Ahmad Xudoydod Tarziyning Mirzo Ulug'bek davrida yozgan "Funun ul-balog'a" nomli asarining Buxoroda 1581-yilda ko'chirilgan yagona nusxasi ham Bodlian

kutubxonasida saqlanmoqda. Bu qo'lyozma Abulxayrxon davrida shuhrat qozongan xatnot Mir Kulangiy qo'lidan chiqqan bo'lib, Alisher Navoiyning ayni mavzu haqida yozgan "Majolis un-nafois" asaridan taxminan ellik yil avval yozilgani bilan bebaho qimmatga ega.

Siz Imom Buxoriy xalqaro ilmiy-tadqiqot markazi tomonidan "Mo'g'ullar va temuriylar imperiyalaridagi O'rta Osiyo qo'lyozmalari (XIII-XV asrlar)" mavzusida o'tkazilgan xalqaro konferensiyada ishtirok etdingiz. Aytinch, anjumandan kutilgan natijalarga erishdingizmi va u qaysi jihatlari bilan ahamiyatli bo'ldi?

Imom Buxoriy xalqaro ilmiy-tadqiqot markazi Avstriya Fanlar akademiyasi bilan hamkorlikda o'tkazgan konferensiyaning men uchun eng muhim natijalaridan biri O'zbekistondagi olimlarning g'ayratiga guvoh bo'lishimdir. G'arb mamlakatlarining ayrimlarida, ayniqsa, adabiyotshunoslik va manbashunoslik kabi sohalarada akademiyalarning iqtisodiy ahvoli og'ir. Hukumatdan olinadigan mablag' kamayib, tadqiqotlari bilan mashhur olimlarning ko'pi universitetlarda dars berish bilan band bo'lib, tadqiqotga vaqt topolmayapti. Shunga qaramay, O'zbekistondagi olimlar hukumat tomonidan qo'llab-quvvatlanayotgani va yangi ilmiy markazlar tashkil etilayotganini ko'rish menga ta'sir qildi. Bu olimlarga katta e'tibordan darak.

bo'yicha mutaxassis bo'lmagan. Shuning uchun kolleksiyamiz boyligiga qaramay, Markaziy Osiyo olimlari mazkur qo'lyozmalar haqida odatda xabardor bo'lmaydi. O'zbekistonga borib, hamkasblarimizni bu nodir qo'lyozmalar haqida xabardor qilish, menimcha, ilm dunyosiga katta xizmat bo'ladi. Haqiqatan, bu kitoblar O'zbekiston tarixining bir qismidir. Agar Angliya olimlari ular haqida maqola yozsa ham o'zbekistonlik tadqiqotchilar kelib, tekshirib, fikrlarini qo'shsa, menimcha, ishimiz to'liq bo'ladi.

O'zbek tili boy tarixiy va madaniy merosi bilan bugun ko'plab davlatlarda, jumladan, Angliyada ham keng tarqalgan va yoshlarning, talabalarning ta'lim olishida muhim o'rin tutadi. Shunday emasmi?

Oksfordda o'tgan yili ilk marotaba o'zbek tili bo'yicha dars o'ta oldik. Angliya akademiyasi o'zbek tiliga endigina e'tibor qaratib boshladi. Men esa AQSHda tug'ilib, katta bo'lganman. O'zbek tiliga qiziqishim aslida Xitoyda boshlangan. 2006-yili Chikago universitetida

kechgan, chunki grammatikasi ona tillarim — ingliz va fransuz tillaridan juda farq qiladi. Biroq ularni o'rganishdagi farqlarga ko'nikkanimdan so'ng tiling tizimi juda qonuniy bo'lgani sababli nisbatan osonlashdi. Yana bir necha yil avval Erasmus+ dasturi orqali Samarqandga borib, uch oy tojik tilining Samarqand shevasi grammatikasidagi o'zbek tilidan o'tgan unsurlar haqida tadqiqot olib bordim. O'zbekistonda yashab, har kuni o'zbekcha gapirish ham juda katta yordam berdi, albatta. Shunday bo'lsa-da, o'zbek tilida ilmiy maqola yozib, chop ettirmaganman. Nasib etsa, buni ham biror kuni amalga oshiraman.


Olim sifatida O'zbekistondagi boy madaniy meros haqidagi fikrlaringiz bilan o'rtoqlashsangiz.

Har bir madaniyatning, albatta, o'ziga xos boyligi bor. Lekin meni O'zbekistonga maftun qilgan jihatlardan biri bunyodkorlik muhitidir. Afrosiyob devoriy rasmlaridagidek islomdan avvalgi davrda tikilgan ba'zi liboslarni, motivilarni bugun ham ko'rish mumkin. Bugungi kunga kelib, yoshlar chet eldan kelgan unsurlarni o'z uslubini bilan birlashtirib, rivojlaniryapti. Bu faqat san'atda emas, tafakkurda ham bo'ladi. Balki shu tufayli O'zbekiston zaminidan shunchalik ko'p alloma va san'atkorlar yetishib chiqqan.

yo'zgan Muhammad Afzalning "Malufuzi Sohib-qiron" asari, Boborahim Mashrab va boshqalarning bitiklari shular jumlasidan. Bu faqat hozir esimga kelgan nomlar. Kolleksiyamiz shunchalik qadimiy va boyki, ba'zi qismlarida zamonaviy katalog qilingan. Binobarin, ishimizning yarmi kutubxonamizdagi hanuz katalogga kirmagan qo'lyozmalar qaydlarini joriy etish yoki mavjud qaydlardagi noto'g'ri ma'lumotlarni tuzatib, yangilashdan iborat.

Har bir qo'lyozma o'zining noyobligi va nodirligi bilan ajralib turadi. Shunga qaramay, ular orasida eng qadimiy va dastxat nusxalarni alohida qayd etish lozim. Ushbu asarlar nafaqat o'z davrining, balki butun insoniyatning ilmiy va madaniy merosi sifatida alohida ahamiyatga ega. Ular haqida so'z yuritganda, qadimiylik, yaratilish tarixi va ahamiyatini ham ko'rib chiqish muhim.

Bu savolga javob berish kutilganidan ham qiyinroq. Kolleksiyamizdagi har bir buyum batafsil tekshirilgan va tekshirilganlarning orasida ko'chirilgan asarlar tarixini aniqlashda hali ko'p holatlar mavjud. Bundan tashqari, har fondning o'z mutaxassislari bo'lgani bois, bir fondagi asarlarning ahamiyatini boshqa fondlar mutaxassislari bilmasligi mumkin.



USHBU MAQOLANI QORAQALPOQ TILIDA HAM O'QISH UCHUN QR-KODNI SKANER QILING!

Jurnalist Xurshida NOSIROVA suhbatlashdi.

KONSTITUTSIYAVIY ISLOHOTLAR G'OYASINING TUG'ILISHI, AMALGA OSHIRILISHI VA NATIJALARI

Mulohaza

Akademik Akmal Saidovning "Yangi O'zbekiston Konstitutsiyasi" darslik-xrestomatiyasida mustaqilligimiz tarixining uzviy qismi bo'lgan konstitutsiyaviy islohotlar g'oyasining tug'ilishi, rivojlanishi, amalga oshirilishi va natijalari haqida atroflicha so'z boradi. Yangi tahrirdagi Konstitutsiyamizning ishlab chiqilishi, keng muhokamalardan o'tkazilishi hamda qabul qilinishi jarayoni haqida arxiv, ilmiy materiallar va omamviy axborot vositalari ma'lumotlari asosida yozilgan mazkur asar muallifning 2017-yili nashrdan chiqqan "O'zbekiston Konstitutsiyasi tarixi" kitobining mantiqiy davomidir.

Birinchi kitobda 1992-yil 8-dekabrda qabul qilingan Bosh qonunimizning yaratilish tarixi, bu muhim huquqiy hujjatning mazmun-mohiyati chuqur taqin etilgan, tahlillar asosida e'tiborli jihatlari ochib berilgan.

Tahlillarga ko'ra, xalqaro ekspertlar O'zbekiston Respublikasining yangi tahrirdagi Konstitutsiyasi mamlakatimizning barqaror taraqqiyotini ta'minlashda mustahkam huquqiy asos bo'lib xizmat qilishini yakdillik bilan e'tirof etmoqda. Shuningdek, unda BMTning Barqaror rivojlanish maqsadlarida belgilangan

vazifalar, Prezidentimiz ta'kidlaganidek, so'nggi yetti yilda qabul qilingan 3 ta kompleks taraqqiyot strategiyamiz hamda qonunlar va boshqa normativ-huquqiy hujjatlarda ham o'z aksini topdi.

Shu ma'noda, kitobda so'nggi yillarda davlatimiz rahbari tashabbusi va rahbarligida ishlab chiqilgan hamda tasdiqlangan 2017-2021-yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasi, 2022-2026-yillarga mo'ljallangan yangi

O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi va "O'zbekiston — 2030" strategiyasini amalga oshirish asosida konstitutsiyaviy islohot g'oyasining tug'ilishi, rivojlanishi, amalga oshirilishi va natijalari haqida atroflicha so'z yuritiladi.

Darslik kirish, birinchi qism — yangi O'zbekiston Konstitutsiyasi: yaratilishi, mazmuni, maqsadlari, ikkinchi qism — xrestomatiya va yangi tahrirdagi O'zbekiston Konstitutsiyasi: metodologik g'oyalari, rasmiy hujjatlar, tahliliy materiallardan shakllantirilgani ham e'tiborga loyiq.

Kitobning kirish qismida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining fundamental asarlari — "Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasi" hamda "Hozirgi zamon va Yangi O'zbekiston" asarlarining nashr etilishi, O'zbekistonning bugungi qiyofasi, mamlakatimizning jahon taraqqiyotida tutgan o'ri va mavqei, muhim xalqaro ijtimoiy-siyosiy jarayonlardagi faol ishtiroki, dolzarb masalalar bo'yicha ilgari surayotgan ko'plab tashabbuslarining mazmun-mohiyati ochib berilgan. Shuningdek, bugun dunyoda 500 dan ortiq amaldagi konstitutsiya mavjudligi, shundan 200 ga yaqini mustaqil davlatlar, 300 dan ortig'i federatsiyalar subyektlariga tegishli ekanini bayon qilingan.

Muallifning eng muhim siyosiy, huquqiy, iqtisodiy-ijtimoiy, ma'naviy masalalarni o'ziga qamrab olgan bu qadar yirik hajmdagi analitik materiallar va ma'lumotlarni qisqa vaqtda to'plagan, umumlashtirgani, har

birini yurakdan o'tkazib chuqur tahlil qilgani, sodda va oddiy tildan foydalangan holda o'quvchilarga yetkazgani ham diqqatga sazovor, Zero, bu sa'y-harakatlar juda katta g'ayrat-shijoat, bilim va tajriba, keng miqyosdagi tafakkur va intellektual salohiyatni talab etadi.

Kitob bilan batafsil tanishar ekanimiz, oldimizga qo'lyozma yuksak vazifalari, ya'ni zamonaviy rivojlangan demokratik davlatlar qatoriga kirish, iqtisodiyotimizning barqaror o'sishini ta'minlash, aholining hayot darajasi va sifatini oshirish, O'zbekistonning jahon hamjamiyatida munosib o'rin egallashiga qaratilgan uzoq va davomli maqsadlarga erishish, ularni amalga oshirish yo'llari bugungi va ertangi kun nuqtayi nazaridan teran tahlil qilingan. Yaqin kelajakdagi ustuvor, dasturiy yo'nalishlar aniq va ravshan bayon etilgan.

Asarda O'zbekiston Respublikasining yangi tahrirdagi Konstitutsiyasi loyihasiga faol munosabat bildirgan dunyo ekspertlaridan 143 nafarining fikri keltirilgan. Ushbu fikr-mulohazalar O'zbekistonda konstitutsiyaviy islohot davom etgan ikki yarim yilda milliy, xorijiy va xalqaro omamviy axborot vositalarida e'lon qilib borildi.

Kitobda Konstitutsiya muttasil harakatdagi muhim siyosiy-huquqiy hujjat ekanini, ya'ni u hayot jo'shqinligi va o'zgarishlarni o'zida yaqqol aks ettirgani, hozir konstitutsiyaviy vatanparvarlikni shakllantirish ustuvor vazifaga aylangan ishonchli manbalarda asosida o'quvchilar e'tiboriga havola qilingan.

Shuningdek, darslik-xrestomatiya chop etilishida Prezident Shavkat Mirziyoyevning xalqimiz bosib o'tgan taraqqiyot yo'lini teran tahlil qilib, yaqin va olis kelajakda oldimizda turgan vazifalarni ham strategik, ham taktik jihatdan atroflicha asoslab berilgan "Hozirgi zamon va Yangi O'zbekiston" kitobi dasturlamal bo'lganini aytish zarur. Chunki ushbu kitobda Konstitutsiyani o'rganishni maktabgacha ta'lim tashkilotlaridan boshlab, barcha darajadagi ta'lim muassasalarida davom ettirish, aholining turli qatlamlari va ayniqsa, davlat xizmatchilarini ushbu jarayonga to'liq jalb etish lozimligi ta'kidlangan.

Bu borada davlat xizmatiga ishga qabul qilishda Konstitutsiya asoslari bo'yicha imtihon o'tkazish tizimini taqib etish yaxshi samara berishi shubhasiz. Konstitutsiya va qonunlar ustunligini ta'minlashda davlat organlari va mansabdor shaxslarning jamoatchilik oldidagi hisobdorligini oshirish ham muhim ahamiyatga ega.

Kitobning ikkinchi qismida esa yangi tahrirdagi Konstitutsiyamizning ishlab

chiqilishi, qabul qilinishi va amaliyotga tatbiq etilishi bilan bog'liq metodologik g'oyalari, rasmiy hujjatlar, tahliliy materiallar o'z aksini topgan. Xususan, birinchidan, Prezidentimizning Konstitutsiya to'g'risidagi fikrlari, ikkinchidan, konstitutsiyaviy islohotlarga taalluqli materiallar, uchinchidan, konstitutsiyaviy islohotlarning omamviy axborot vositalarida yoritilishiga oid infografika, chizma va jadvallar taqdim etilgan.

Kitob bilan batafsil tanishar ekanimiz, biz o'z oldimizga qo'lyozma yuksak vazifalari, ya'ni zamonaviy rivojlangan demokratik davlatlar qatoriga kirish, iqtisodiyotimiz barqaror o'sishini ta'minlash, aholining hayot darajasi va sifatini oshirish O'zbekistonning jahon hamjamiyatida munosib o'rin egallashiga qaratilgan uzoq va davomli maqsadlarimiz, ularni amalga oshirish yo'llari bugungi va ertangi kun nuqtayi nazaridan teran tahlil qilingani hamda yaqin kelajakdagi ustuvor, dasturiy yo'nalishlar aniq va ravshan belgilab berilganiga guvoh bo'lamiz.

Muallif tomonidan bayon qilingan, yaqin tariximiz haqidagi bevosita o'zi guvoh bo'lgan, Konstitutsiyaviy komissiya tarkibidagi faoliyati davomida yuragidan o'tkazgan hayajonli voqealar, aniq faktlarga asoslangan haqqoniy fikrlar kitobning qiymatini yanada oshiradi. Bu kitob bilan tanishgan har bir inson muallifning O'zbekiston taqdiri va kelajagining eng muhim masalalarini mukammal o'rganганиni, muammolarning yechimiga donishmandlik va jasorat bilan yondashganini ko'rishi mumkin.

Murodjon TURG'UNOV,
O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Davlat va huquq instituti direktori, yuridik fanlar doktori, professor



Boshlanishi 1-betda

Ushbu ilm karvoni oradan 500 yildan oshiq vaqt o'tsa ham ezgulik istovchi insonlar yo'lini nur va ziyo bilan Navoiyga yetakladi. Ilm karvoni Belgiya, AQSH, Vengriya, Pokiston, Rossiya, Eron, Misr, Ozarbayjon, Turkiya, Shimoliy Kipr, Qozog'iston, Qirg'iziston, Tojikiston kabi 20 ga yaqin davlat, shuningdek, yurtimiz navoiyshunoslari, arboblari, madaniyat va san'at namoyandalari, yirik oliy o'quv yurtlari professorlari yo'lini Navoiy bilan tutashirdi.

Prezidentimiz qarorida belgilanganidek, buyuk mutafakkir tavalludining 584 yilligi munosabati bilan 8-9-fevral kunlari Navoiy shahrida "Alisher Navoiy va Sharq Rennessansi" IV xalqaro simpoziumi bo'lib o'tdi. Alisher Navoiy nomi bilan ataladigan navqiron shaharda ilk bor o'tkazilayotgan ushbu forumning nufuzi dunyo miqyosida tobora ortib bormoqda. Bu safargi anjumanda Osiyo, Afrika, Yevropa va Amerika qit'olari mamlakatlaridan ko'plab tanikli olim va tadqiqotchilar ishtirok etgani ham bu fikrni yaqqol tasdiqlaydi.

Ushbu anjuman Navoiy viloyatida "Alisher Navoiy yili" deb e'lon qilingan joriy yilda, ulug' bobomizning 584 yillik tavallud sanasi keng nishonlangan bir vaqtda o'tkazilgani uning fayzi va shukuhini yanada oshirdi. Simpozium ishtirokchilariga davlatimiz rahbari tabrik yo'ladi. Xalqaro anjumaning birinchi kunida tabrikni O'zbekiston Respublikasi Prezidenti maslahatchisi Xayriddin Sultonov o'qib eshittirdi.

Tabrikda ta'kidlanganidek, Alisher Navoiyning bebaho ijodiy merosi haqli ravishda jahon adabiyoti daholarining buyuk asarlari bilan bir qatorda turishi bizga cheksiz g'urur va iftixor bag'ishlaydi. Ayniqsa, mutafakkir ajdodimizning turli xalqlar o'rtasida tinchlik va do'stlikni mustahkamlash, bashariyatning yorug' kelajagini birgalikda qurishga chorlaydigan g'oya va qarashlarining ahamiyati hozirgi tahlilki davrda tobora ortib bormoqda.

Bugun yangi O'zbekistonda Uchinchi Rennessans poydevorini bunyod etishdek qutlug' jarayon kechmoqda. Ana shu vaziyatda mamlakatimiz tashqi siyosatda ham tinchlik, do'stlik va ishonchga qurilgan diplomatiyani targ'ib etmoqda. Zero, ko'zlangan ulkan marralarga faqat do'stona munosabatlar va tinchlik orqaligina erishish mumkin. Shu ma'noda, bugun yangi



O'zbekiston dunyo ahliga hazrat Navoiy timsolida:

"Olam ahli bilingizkim, ish emas dushmanlig', Yor o'lung bir-biringizganim, erur yorlig' ish",

deya xitob etmoqda.

Jamiyatimiz, xususan, yoshlar orasida Alisher Navoiy asarlarini keng targ'ib etish esa bitmas-tuganmas kuch-g'ayrat va ilhom

manbai bo'lib xizmat qiladi. Zamon iborasi bilan aytganda, motivatsiya beradi.

Anjumanda Navoiy viloyati hokimi Normat Tursunov so'zga chiqib, buyuk ajdodimiz merosini xalqaro miqyosda faol targ'ib qilayotgan turkiyalik tanikli olim, Anqara shahridagi Alisher Navoiy nomidagi xalqaro ilmiy-tadqiqot markazi rahbari, Boshkent universiteti rektori maslahatchisi Abdurahmon Guzel va AQSHdan tashrif buyurgan tadqiqotchi, Prinston universiteti professori, falsafa doktori Said Rizo Huseyniy Balxiyga Navoiy shahriining faxriy fuqaroligi berilganini e'lon qildi.

navoiyshunos olimlarni adabiyot davrasiga jam qildi, — deydi ozarbayjonlik olim Bedirxan Ahmedli. — Ozarbayjonda ham buyuk mutafakkir ijodi va uni o'rganishga qiziqish kuchli. Bu borada ham qator ilmiy ishlar, tadqiqotlar olib bormoqdamiz. Mazkur anjuman Alisher Navoiy boy ijodiy merosi yuzasidan ilm ahliga bir davrda fikr almashish imkonini berdi. Bu kabi adabiy tadbirlar shoir ijodini kelgusi avlodga o'rgatish va yanada teranroq anglatishda muhim ahamiyatga ega.

Buyuk shoirning



Xalqaro simpoziumning ikkinchi kuni, 9-fevral tongida ishtirokchilar va viloyat faollari tomonidan Navoiy shahridagi madaniyat va istirohat bog'idagi buyuk mutafakkir haykali poyiga gul qo'yilib, allomaga hurmat bajo keltirildi.

xalqaro simpoziumni har yili an'anaviy tarzda Navoiy viloyatida o'tkazishni taklif qilib, nufuzli anjumanga mezonlik qilishga hamisha tayyor ekanini bildirdi.

— Simpoziumga dunyoning qator davlatlaridan buyuk bobomiz ijodining haqiqiy muxlislari, navoiyshunoslari yig'ilgan, — deydi O'zbekiston xalq yozuvchisi Erkin A'zam. — Alisher Navoiy dahosidan doimo minnatdormiz va hech qachon unutmaymiz. Chunki bobomiz butun hayoti va ijodini olijanoblik va ezgulikka bag'ishlagan. Umuman, Navoiyning butun ijodi mohiyati "O'zingni angla" g'oyasiga yo'g'rilgan. Inson dunyoga keldimi, o'z hayotidan ma'no qidirib yashashi kerak, degan mazmun bor. Ana shu mohiyat va mazmuni anglashda buyuk ajdodlarimiz ijodiy merosi bizga yordam beradi.

Simpozium doirasida Navoiy davlat universiteti hamda Eronning Imom Humaynii nomidagi xalqaro universiteti o'rtasida do'stlik va hamkorlik aloqalarini yanada rivojlantirish maqsadida memorandum tuzildi. Unga ko'ra, universitetlar o'rtasida ilmiy-metodik konferensiyalar tashkil qilish, talabalar hamda professor-o'qituvchilar almashinuvini yo'lga qo'yish, tajriba almashish va zamonaviy ilmiy-metodik dasturlarni amaliyotga keng joriy etish kabi muhim vazifalar belgilab olindi. Imom Humaynii xalqaro universiteti gumanitar fanlar, muhandislik, tabiiy va ijtimoiy fanlar hamda boshqa sohalarida sifatli ta'lim berishi bilan ajralib turadi. Bu borada ham universitetlar rektorlari hamkorlik qilishga kelishildi.

"Alisher Navoiy va Sharq Rennessansi" IV xalqaro simpoziumidan ko'zlangan maqsad ulug' mutafakkir, shoir asarlarida teran ifoda turgan milliy va umuminsoniy g'oyalarni targ'ib etishdir. Buning uchun, avvalo, mutafakkir ijodini ilmiy tadqiq qilish, uni dunyo olimlari bilan birga o'rganish zarur. Shu bois, simpozium



"Alisher Navoiyning bebaho ijodiy merosi haqli ravishda jahon adabiyoti daholarining buyuk asarlari bilan bir qatorda turishi bizga cheksiz g'urur va iftixor bag'ishlaydi. Ayniqsa, mutafakkir ajdodimizning turli xalqlar o'rtasida tinchlik va do'stlikni mustahkamlash, bashariyatning yorug' kelajagini birgalikda qurishga chorlaydigan g'oya va qarashlarining ahamiyati hozirgi tahlilki davrda tobora ortib bormoqda."

Shuningdek, anjuman davomida Navoiy davlat universitetida "Alisher Navoiy va Sharq Rennessansi" IV xalqaro simpoziumining sho'ba yig'ilishlari bo'lib o'tdi.

Unda navoiyshunos olimlar, arboblari, madaniyat va san'at namoyandalari, yirik oliy o'quv yurtlari professorlari qatnashdi. Ushbu jarayonlarni bir qator davlatlarning navoiyshunos olimlari onlayn kuzatib bordi. Alisher Navoiy merosini, o'rganilmagan, ilmiy muomalaga kiritilmagan qo'lyozmalarini izlab topish va amaliyotga joriy etish bo'yicha ilmiy safarlar, ekspeditsiyalarda yurgan olimlarning simpoziumdagi ishtiroki dunyo navoiyshunoslariga qiymatli manbalarni tuhfa qildi. Zero, olimlar yig'inlar davomida mulohazalari, tahlillari bilan bo'lishib, hamkasblarning o'zaro fikr almashishiga katta zamin yaratildi.

— Hazrat Alisher Navoiy o'z ijodida "Turk nazmidan chu men tortib alam, ayladim ul mamlakatni yakqalam", deya butun turkiy elni yagona til va yagona adabiyot atrofida birlashtirganini aytib o'tgan, — deydi filologiya fanlari doktori, professor Nurboi Jabborov. — Biz bugungi kunda aynan shu kabi ezgu g'oyalar amalga oshayotganini ko'ryapmiz. Prezidentimiz tashabbusi bilan tashkil etilgan ushbu xalqaro simpozium ham fikrimizni yaqqol tasdiq'idir. Xalqimiz, ayniqsa, yoshlarimizda Alisher



madaniyat va istirohat bog'idagi buyuk mutafakkir haykali poyiga gul qo'yilib, allomaga hurmat bajo keltirildi.

— Yurtimizda barchaning, ayniqsa, navoiyliklarning yuzida, qalbida bayramona kayfiyat hukm surmoqda, — deydi O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan madaniyat xodimi, shoir Xosiyat Bobomurodova. — Ne baxti, yurtimizning Alisher Navoiysi bor va uning ijodi bizni doimo ezguliklarga chorlaydi. Neki yaxshi ishga qo'l ursak, har biri haqida buyuk bobomizning g'azallari, dostonlari borligini ko'ramiz. 2025-yil Navoiy viloyatida "Alisher Navoiy yili" deb e'lon qilinishi barcha ijodkorlarga ma'naviy qanot bo'ldi.

Shundan so'ng xalqaro simpozium "Farhod" madaniyat saroyida poytaxtlik va mahalliy san'atkorlar, shoir va olimlar ishtirokidagi "Nazm va navo" musiqali kechasi bilan davom etdi. Unda hazrat Navoiy asarlari asosida musiqiy chiqishlar, sahna ko'rinishlari namoyish etildi. Tadbirda viloyat hokimi Normat Tursunov ushbu

doirasidagi tadbirlarni viloyat miqyosida o'tkazishga, xususan, ta'lim maskanlarini qamrab olishga harakat qilindi. Shu orqali oldimizga qo'yilgan maqsad, yurtimizning ma'naviy brendiga zamin yaratildi. Bunday keng ko'lamdagi tashabbuslar, davlat rahbari imzolagan qarordagi vazifalar doirasidagi ishlar izchil davom ettiriladi. Dunyoning turli davlatlaridan kelgan olimlar, navoiyshunoslar esa o'z yurtlarida hazrat ijodi targ'ibotida sobit turib, jahon ahliga Navoiy ma'rifatini ulashadi. Bunday targ'ibotlar yangi O'zbekistonning ma'rifiy siyosati sabab hazrat Navoiy orzusi ushlab, dunyo ahli yorlig'ni — chin insoniy do'stlikni ish — o'zlarining burchi deb qabul qilishiga ishonamiz. Ilo, inson borki, dunyoda sharaf topishni istaydi. Hazrat Navoiy esa sharafga erishish yo'lini bunday ko'rsatgan:

"Bordur inson zotida oncha sharaf, Kim yamon axloqin oncha bartaraf".

G'olib ABDUSALOMOV, "Yangi O'zbekiston" muxbiri

"Yangi O'zbekiston" va "Правда Востока" gazetalarini tahririyati DM

Bosh muharrir:

Salim DONIYOROV

MUASSIS:
O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi

Tahririyatga kelgan qo'lyozmalar taqiriz qilinmaydi va muallifga qaytarilmaydi. Gazetaning yetkazib berilishi uchun obunani rasmiylashtirgan tashkilot javobgar. Gazeta tahririyat kompyuter markazida sahilalandi. Gazetaning poligrafik jihatdan sifatli chop etilishiga "SHARQ" NMAK mas'ul. Bosmaxona telefoni: (71) 233-11-07.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan 2020-yil 13-yanvarda 1047-raqam bilan ro'yxatga olingan. **Nashr indeksi — 236. Buyurtma — 246.** 36060 nusxada bosildi. **Hajmi — 3 taqob. Ofset usulida bosilgan. Qog'oz bichimi A2.** Bahosi kelishilgan narxda.

"SHARQ" nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosmaxonasida chop etildi.

Navbatchi muharrir: Jonibek Alijonov
Musahhih: Malohat Mingboyeva
Dizayner: Zafar Ro'ziyev

Manzillimiz:
100060, Toshkent shahri,
Shahrisabz ko'chasi, 85-uy